

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM USLUBIYOTI
KAFEDRASI

Xudayberdiyeva Mohidil Baxriddin qizi

**“Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan
foydalanishning psixo-didaktik asoslari”**

5111700– Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviyish yo'nalishi
bakalavri darajasini olish uchun yozilgan

**bitiruv malakaviy ishi
(2016-2017- o'quv yili)**

Ilmiy rahbar:

Z.L.Umurov,
katta o'qituvchi

Rasmiy opponent:

I.E.Davronov,
katta o'qituvchi

BUXORO – 2017

REJA:

KIRISH:

- bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining o`rganilganlik darajasi;
- tadqiqotning maqsadi;
- tadqiqot obyekti;
- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot vazifalari;
- tadqiqot metodlari;
- tadqiqotning metodologik asoslari;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy yangiligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy –amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

I BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

I.1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha

I.2. Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash prinsiplarining psixologik tahlili

II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY SHART- SHAROITLARI

II.1. Interaktiv usullarda o'qitishning maqsad va vazifalari

II.2. Boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan interaktiv o'qitish metodlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. “Aql-zakovatli, yuksak maʼnaviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina oldimizga qoʻygan maqsadga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecha olmasak, barcha toʻat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, farovon hayot ham boʻlmaydi,”- degan edi birinchi Prezidentimiz I.Karimov oʻzining “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida.

Zero, komil insonni tarbiyalash borasidagi izlanishlar bugungi kunda va istiqbolda ham davlat siyosati darajasida uzluksiz kuchayib borayotganligini va umumxalq harakatiga aylanayotganligi bolalikning ilk pogʻonalaridanoq yoshlarda ijtimoiy qimmatga ega faoliyatni tarbiyalash, boshlangʻich taʼlimni yanada takomillashtirishdek muhim vazifani qoʻymoqda.

Ayni paytda ushbu muammoni hal qilish uchun yetarli asos va shart-sharoitlar vujudga keldi. Oʻquv fanlari va taʼlim bosqichlari boʻyicha kontseptsiyalar, davlat taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari va yangi tipdagi darsliklarning yaratilganligi, pedagogik nazariyaga yangi gʻoyalarning olib kirilganligi bunga yaqqol dalil boʻla oladi. Shuningdek, taʼlimga texnologik yondoshish ham dolzarb tamoyillardan biriga aylandi. Bularning barchasi Respublikamizda oʻziga xos taʼlim modelining asoslanishiga olib keldi.

Mavjud maktab pedagogik texnologiyalarini tahlil qilganda koʻpincha oʻquvchida kechadigan psixik jarayonlar, jumladan, tushunish va idrok etishga texnologik yondashilmaganligining guvohi boʻlamiz. “Tushunish” muammosi psixologik-pedagogik adabiyotlarda koʻp hollarda nazariy xarakterda boʻladi. Shuning uchun maktabning amaliy topshiriqlari yechimiga uncha mos kelmaydi. Tushunish muammosi boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, maktab amaliyotida ham bu borada uzilishlar mavjud. Oʻquvchilar maʼnosini tushunmay soʻzlar ustida ishlashga oʻrganiyaptilar va bu odatiy meʼyorga aylanmoqda. Baʼzi hollarda oʻqituvchining oʻzi ham maktab materialini yetarli darajada tushunmasligi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish psixologik mexanizmlarni tekshirish va asoslashni talab etadi.

Istalgan faoliyat ma'lum vaqtdan keyin tushunilgan va operatsiyalarga bo'linib, ilmiy asoslangan bo'ladi. Bunga yaqqol misol tariqasida sportchining bo'ladigan musobaqaga samarali tayyorlik holatini olish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar shaxsni shakllantirishga, ya'ni uni ham kasbida, ham oilasida omadli, o'zi va boshqalar bilan murosada bo'la oladigan qilib tarbiyalash uchun xizmat qilmog'i lozim.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi. Aytib o'tganimizdek, boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslari ilmiy adabiyotlarda umumiy tarzda o'rganilgan.

Shu nuqtai nazardan mazkur masala yuzasidan bir qancha olimlarimiz tomonidan yoshlarga ta'lim-tarbiya berish masalalari, ta'limni to'g'ri tashkil etish tamoyiliga asoslanish, dars samaradorligining shartlari, interfaol metodlar va ularning didaktik imkoniyatlari, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, M.Maxmutov, O.Roziqov, M.Ochilov, N.Azizxo'jaeva, A.Abdukodirov, N.Sayidahmedov, M.Mahmudov, B.R.Adizov, S.Nishonova, O.Hasanboeva, A.Munavvarov, Sh.Sharipov, B.Abdullaeva, O'.Q.Tolipov, J.G'.Yo'ldoshev, M.Usmonboeva, D.Ro'zievalarning ilmiy tadqiqotlari shular jumlasidandir. Umuman olganda biz tanlagan mavzu yaxlit va monografik tarzda haligacha o'rganilmagan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi. Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va ulardan bugungi kun ta'lim-tarbiya amaliyotida foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslari jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslari mazmuni, vositalari, manbalari, shakllari, usul va metodlari.

Tadqiqot vazifalari:

- tanlangan mavzuga oid adabiyotlarni to'plash, manbalarni tahlil qilish;
- pedagogik texnologiyalar haqida umumiy ma'lumot berish;
- boshlang'ich ta'limda interfaol usullardan foydalanishning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslash;
- interfaol usullarni konstruksiyalash va qo'llash prinsiplarini tahlil qilish;
- boshlang'ich ta'lim mazmuniga va o'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlariga mos bo'lgan interfaol usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar yaratish kabi masalalar qamrab olindi.

Tadqiqot metodlari. O'rganish, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, kuzatish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ta'lim-tarbiya haqidagi asarlari va nutqlari, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», maktab-maorif to'g'risidagi davlat hujjatlari va administrativ qo'llanmalar, pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslari haqidagi tadqiqotlar, fanshunoslik va ijod psixologiyasiga oid ilmiy ishlar, pedagogik va psixologik tadqiqotlar metodologiyasiga oid ilmiy izlanishlar, ta'limni tashkil etishga oid ilmiy-pedagogik va psixologik tadqiqotlar, pedagogika va psixologiyaga oid monografiya, risolalar va sh.k. sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy yangiligi. Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslariga oid adabiyotlarni to'plandi, manbalarni tahlil qilindi, pedagogik texnologiyalar haqida umumiy ma'lumot berildi, boshlang'ich ta'limda interfaol usullardan foydalanishning afzalliklari nazariy jihatdan asoslandi, interfaol usullarni konstruksiyalash va qo'llash printsiplari tahlil qilindi, boshlang'ich ta'lim mazmuniga va o'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlariga mos bo'lgan interfaol usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy –amaliy ahamiyati. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha tavsiyalar, boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixo-didaktik asoslariga oid ilmiy nazariy ma'ruzalar tayyorlashda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv motivni shakllantirish ishlarini takomillashtirishda, ish tajribalarini ommalashtirishda, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ish kirish, 2 bob, 4 fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

I BOB

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

I.1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi 1960 yillarning boshlarida paydo bo'ldi. 1966 yildan boshlab Angliyada har ikki yilda bir marotaba shu muammoga bag'ishlangan konferensiya o'tkazila boshlandi. Bu konferensiya materiallari asosida **“Aspects of Edicational Technology”** deb nomlangan kitob ham nashr qilina boshlandi. Xuddi shu atama Amerika pedagogik jurnallarida ham qo'llanila boshlandi. 70-yillarga kelib “pedagogik texnologiya” tushunchasi keng ma'noda qo'llanilib, unga o'quv jarayonini takomillashtirishga oid hamma narsa kiritila boshlandi.

Texnologiya (grekcha **techne** - san'at, mahorat; **logos**-fan degan ma'noni anglatadi) – bu xomashyo yoki materiallarni olish, ishlab chiqarish va qayta ishlash usul va vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya esa bu faqat o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardan iborat bo'lmay, balki ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish printsiplarini ajratish, usullarini ishlab chiqish maqsadini qo'zlagan tadqiqotlardan ham iboratdir.

Demak, pedagogik texnologiya deganda bilim, ko'nikma, malaka va munosabatlarni qo'yilgan maqsadga muvofiq konstruksiyalash, shakllantirish va nazorat qilishga qaratilgan operatsiya (amal)lar majmui tushuniladi. Maqsadlar aniq va o'lchanadigan bo'lishi kerak; operatsiya (amal)lar qo'llanishga qulay (alohida sub`ekt tomonidan texnologiyalarni qo'llash ehtimoli yuqori bo'lishi kerak); operatsiyalar maqsadga erishish uchun tugallangan jarayon bo'lishi; o'qituvchining sub`ektivizmi minimal darajaga tushirilishi kerak. Pedagogning erkinligi maqsadga yetaklovchi xatti-harakatlar doirasida bo'lishi mumkin va zarur.

texnologiyalarining psixologik aspekti sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. **M** - ta'lim va tarbiya **maqsadi**, ularning psixologik strukturasi; psixologik materiallar va konstruktsiyalar.

2. **O** - maqsadga erishishga qaratilgan **operatsiyalar** majmui. Operatsiyalarga jismoniy yoki psixologik tomondan yondoshish mumkin.

3. **K** - **kommunikator** (pedagog)larning psixologik tavsifnomasi. Ular o'zlari tanlagan operatsiyalar yordamida maqsadni amalga oshiradilar.

4. **R** - **retsipient** (o'quvchi)larning psixologik tavsifnomasi. Ular o'quv-tarbiya vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan muayyan operatsiyalarni amalga oshiruvchi, muayyan kommunikatorlar bilan hamkorlikda aniq maqsadga qaratilgan kommunikativ akt (aloqa)da ishtirok etadilar.

5. **V** - muayyan operatsiyalarni bajarish **vositalari**.

6. **P** - ta'lim va tarbiya **printsiplari** ular asosida ta'lim va tarbiya maqsadi konstruktsiya qilinadi, bu maqsadga erishishni ta'minlaydigan operatsiyalar tanlanadi va amalga oshiriladi.

Demak, texnologiya yuqorida ko'rsatilgan (M,O,K,R,V,P) komponentlarning birgalikdagi funktsiyasi.

Pedagogik texnologiyada o'qituvchi faoliyatini quyidagi komponentlarga ajratish mumkin: gnostik; loyihalovchilik; konstruktsiyalovchilik; tashkilot-chilik va kommunikativlik. (N.V.Kuzmina). Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik texnologiyalari alohida-alohida operatsiyalardan tashkil topgan bilimlarni to'plash, ta'lim va tarbiya maqsadini loyihalash, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, bilimlarini komunikatordan retsipientlarga yetkazish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Gnostik komponent pedagog tomonidan ta'lim va tarbiya maqsadlarini; o'tiladigan o'quv predmeti mazmunini tushunish, o'z-o'zini va o'quvchilarni o'rganish; prinsip va texnologiyalarni o'rganish bilan belgilanadi. Shuningdek, gnostik komponent o'z faoliyati samaradorligini tahlil qilish bo'yicha operatsiyalar majmuini nazarda tutadi. Bu vazifa, ayniqsa, pedagogik faoliyatini anglash bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalovchilik komponenti uzoq maqsad, istiqboldagi xatti-harakatlar va vositalarni loyihalashtirishni ko'zda tutadi.

Konstruktsiyalovchilik komponenti esa kelgusi darsga tayyorgarlik bo'yicha operatsiyalar majmuidan iborat.

Komunikativlik komponenti o'quvchilar bilan bo'ladigan verbal va noverbal o'zaro hamkorlik operatsiyalari majmuidan iborat.


Tashkilotchilik komponenti o'zida darsga tayyorgarlik va uni o'tkazish bo'yicha operatsiyalar majmuini birlashtiradi.

Texnologiyalarning turli xil tasnifi mavjud. Bu ishda biz texnologiyalarni ikki katta guruhga ajratdik: pedagogik texnologiyalar va psixologik texnologiyalar. Pedagogik texnologiyalarda operatsiyalar va hatti-harakatlar jismonan his etiladigan xususiyatga ega. Psixologik texnologiyalar esa yashirin xarakterda bo'ladi: bu alohida bir kishining ruhiyatidagi operatsiyalar va hatti-harakatlar. Lekin ular orasida bir chiziq chegara tortish ancha mushkul. Ba`zan, pedagogik va psixologik texnologiyalar ular qaysi fan sohasida qo'llanilishiga qarab tasnif etiladi. Lekin bunday tasnif tasniflashtirish talablariga zid keladi. Agar operatsiyalar ishlab chiqilib, bir fan sohasida qo'llanilsayu, boshqasida qo'llanilmasa uni qaysi fanga kiritish mumkin? Ko'pincha, texnologiyalar ikki fan tutashuvida ishlab chiqiladi va ularning bir xil aloqadorligini tushuntirish juda qiyin bo'ladi.

Texnologiyalar yana quyidagicha tasnif etilish mumkin: ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va diagnostika texnologiyalari. Ta'lim texnologiyasini ta'lim va o'z-o'ziga ta'lim singari ikki qismga bo'lishimiz mumkin. Ta'lim texnologiyasi deganda bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan operatsiyalar majmui tushuniladi. (1 chizma)

Tarbiya texnologiyasi - bu nisbatan mustahkam va doimiy yuksak umumlashgan munosabatlarni maqsadli shakllantirishga yo'naltirilgan operatsiyalar majmuidir. (1 chizma)

Rivojlantirish texnologiyalari ta'lim texnologiyalari bilan uzviy bog'langan. Psixik rivojlanish - bu aqliy qobiliyatlarni o'stirish, inson psixikasidagi qandaydir operatsiyalarning o'sishidir.



1-chizma. Psixik samarasiga ko'ra texnologiyalarning turlari.

Lekin predmetlar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida psixik ko'nikmalarning ham o'sishi kuzatiladi, busiz ular shakllanmaydi. Shu tariqa qaerda ko'nikmalarning shakllanish jarayoni kuzatilsa, o'sha yerda har doim psixik rivojlanish bo'ladi. Fan o'qituvchisi uchun natija - bu fan bo'yicha egallangan bilim, ko'nikmalar va malakalar, o'quv materialni esa o'zlashtirilishi lozim bo'lgan predmet mazmuni bo'lib hisoblanadi. Psixik rivojlanishda esa istalgan narsa ta'sir ko'rsatish materialini bo'lishi mumkin, natija psixik ko'nikmalarning shakllanganligi darajasi bilan belgilanadi. Jismoniy rivojlanish natijasi jismoniy ko'nikmalar bilan o'lchanadi. Shu singari rivojlantirish bo'yicha pedagogik texnologiyalar predmetlarning aniq mazmuni bilan chegaralanmaydi. Predmet o'qituvchilari o'z faoliyati maqsadini o'quv materialni o'zlashtirishda deb biladi. Rivojlantirish (o'quvchi)ni ko'zlagan o'qituvchilar esa faoliyati maqsadini yo psixik, yoki jismoniy operatsiyalarning shakllanishida ko'radi.

Maktab pedagogik texnologiyalari tug'risida gap ketganda shuni aytish kerakki, u maktabga tayyorgarlikni aniqlash va shakllantirish jarayonida qo'llanila boshlaydi. Dastlab pedagoglar yoki psixologlar maktabga tayorgarlikni diagnostika

qiladilar, shundan so'ng zaruratga ko'ra maktabga tayyorgarlikni shakllantirish texnologiyalarini qo'llaydilar.

Ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish texnologiyalari xilma-xilligi korrektsiyalash (tuzatish), profilaktika (ogohlantirish), terapiya (davolash), reabilitatsiya (qayta tiklash) tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonida psixik materialni aniqlash o'ta muhim masala hisoblanadi, chunki u o'quvchi psixikasida shakllanadi.

Pedagogik texnologiyalarning psixik metariali.

1.Bilimlar. Bilimlarning psixik material narsa va hodisalarning psixik obrazidir. Obrazlarning 12 xil ko'rinishi mavjud. Bu inson miyasiga axborotlarni kirgizadigan 12 analizator bo'lib hisoblanadi.

Bular: 1) ko'rish; 2) eshitish; 3) hid bilish; 4) ta'm bilish; 5) teri orqali sezish; 6) haroratni sezish; 7) og'riqni sezish; 8) kinestetik; 9) muvozanat; 10) tebranishli; 11) organik; 12) jinsiy.

Shunday bilimlar borki, ular psixikaning ichida shakllanadi, bu hissiyotlar to'g'risidagi bilimlar, ya'ni o'zining ayni paytdagi holatini his etish, oldingi holatlari to'g'risidagi tasavvurlar. Hissiyotlar boshqa kishilar tomonidan idrok etilmaydi. Faqat hissiyotlar to'g'risida axborot yetkazuvchilar idrok etiladi. Ya'ni inson bilimlarni qabul qilish jarayonida o'z hissiyotlarini, ichki kechinmalarini har doim ham to'liq ifoda eta olmaydi. Ayni zamonda maktab ta'lim-tarbiya ishi ko'rish, eshitish va ba'zida ushlab ko'rib his etish obrazlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Insonlarning hissiy-emotsional sohasini shakllantirish bilan esa deyarli shug'ullanmaydi. Maktabda amal qilayotgan estetik tsikl emotsional hissiy sohani shakllantirish muammosini to'la hal etolmaydi. Maktabda kishida ijodiy hissiyotlarni shakllantirishga qaratilgan kurslarni kirishtish lozim. Shunday kurslarning texnologiyalari va ularni olib boruvchi mutaxassislar bor, lekin yetarli emas. Shunday qilib, bilim bu - o'quvchi psixikasida shakllantirilgan obrazlardir. Faqat bir savol ochiq qoladi, bilim deganda xotiraga tushirish mumkin bo'lgan narsalar tushuniladimi yoki xotira bloklarida saqlanadigan, ayni paytda qayta xotirlash imkoni bo'lmagan narsalar ham tushuniladimi? Maktablarimizda bilimlarni shakllantirishga

hal qiluvchi masala sifatida qaraladi. Biroq ayni paytda ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar bilan bir qatorda, bilimlarning ahamiyatini aniqlash talab etiladi. Olimlar shuni ta'kidlamog'dalarki, dalillarni xotirada saqlashga e'tiborni qaratadigan ta'lim beixtiyor ijodiy qobiliyatlarni so'ndiradi, hatto iste'dodlarning yo'qotilishiga olib keladi.

Bu muammoni hal etish uchun bilimlarning ta'lim tizimidagi munosib o'rnini belgilab berish kerak. Agar bilimlar ortida uzoqqa mo'ljallangan maqsadlarni ko'ra olsak, bilimlar bizga shu maqsadlarga erishishda asqotsa, bunday ta'lim takomillashuvchi shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Bilim – bu kuch.

Bilimlarni shakllantirishni turli bosqichlarda olib borish kerak.

1.Tanishish bosqichi. Bu bosqichda o'quvchi predmetlar, jarayonlar va xususiyatlarni farqlashga layoqatli bo'ladi. U tushunish, ajratish va taqqoslash amallarini bajara oladi.

2.Qayta xotirlash bosqichi. Bunda o'quvchi o'rganilgan ob'ekt, uning xususiyatlari, ahamiyatli jihatlari, xarakteristikasi to'g'risida axborot beradi. Bu bosqichda bilimlar ijodiy testlar yordamida sinab ko'riladi. O'quvchilarga faqat savollar beriladi, javob variantlarini esa ularning o'zlari topib qo'yishadi.

3.Bilim-ko'nikma bosqichi (namuna asosida). Bunda o'quvchi bilimlarni qo'llaydi. Lekin qo'llay olish imkoniyati chegaralangan. Chunki o'quvchi o'zlashtirilgan namunagina qo'llashi mumkin. Yangi – mustaqil izlanish talab etiladigan o'quv holatida u bilimlarni qo'llay olmaydi. Bu bosqichda “bilim” va “ko'nikma” tushunchalari o'zaro kesishadi.

4.Bilim-transformatsiya bosqichi. O'quvchi muayyan sohaga oid bilim va tafakkur metodlarini egallaydi. Bular unga ijodiy holatlarda yo'l topish va qaror qabul qilish uchun yordam beradi. Ko'nikmalarni yangi, hali o'rganilmagan sohalarda qo'llay boshlaydi.

Dasturlarni tuzganda bilimlarning qimmatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra bilimlarning bir qismini birinchi bosqichda, bir qismini ikkinchi bosqichda shakllantirish mumkin.

II.Ko'nikmalar - bu psixik yoki psixofizik xatti-harakatlar bo'lib, ob'ekt yoki biror hodisaga yo'naltiriladi va ularga ko'zlangan maqsadga ko'ra yangicha mazmun beriladi.

Psixik ko'nikmalar – bu psixik ob'ekt yoki hodisaga yo'naltirilgan xatti-harakatlar bo'lib, belgilangan maqsadga ko'ra unga yangicha mazmun beradi.

Jismoniy ko'nikmalar ob'ekt yoki hodisaga yo'naltirilgan, unga yangicha mazmun berishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Jismoniy ko'nikmalar shakllantirilmagan psixik xatti-harakatlarsiz mavjud bo'lmaydi, lekin bunday psixik xatti-harakatlarning anglanganlik darajasi turli xil bo'lishi mumkin. Ko'nikmlarning psixik materiali (yoki xom ashyosi) psixik operatsiyalardir.

III.Malakalar - bu avtomatlashtirilgan ko'nikmalardir. Avtomatlashganlik darajasi har xil bo'lishi mumkin. P.Ya.Galperin o'quv jarayonini konstruksiyalashda qo'llash mumkin bo'lgan aqliy xatti-harakatlarni shakllantirish qonuniyatlarini asoslab berdi. Ongga predmetli ta'sir ko'rsatishning shakllanish darajasi bir necha xususiyatlarga ega.

Birinchi xususiyati xatti-harakatlarni bevosita amalga oshirish darajasi bilan belgilanadi. Shunday darajalar beshta:

- 1) o'zgalar xatti-harakatini idrok etish doirasida kuzatish: o'quvchi ob'ekt yoki jarayon yuzasidan o'qituvchi qanday operatsiya amallarini bajarayotganini kuzatadi;
- 2) moddiy xatti-harakatlar darajasi bo'lib, moddiy ob'ekt bilan amalga oshiriladi;
- 3) narsa buyumlarsiz baland nutq jarayonidagi xatti-harakatlar darajasi;
- 4) o'zi haqida gapirib berish jarayonidagi xatti-harakatlar darajasi;
- 5) ichki nutq jarayonidagi xatti-harakatlar darajasi.

Ikkinchi xususiyat – operatsiyalarning to'liqligi.

Uchinchi xususiyat – materiali, tipi va qonuniyatlariga ko'ra xatti-harakatlarni umumlashtirish.

To'rtinchisi – xatti-harakatlarning o'zlashtirilganligi bo'lib, ular yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarning birlashuvidan hosil bo'ladi.

Ko'nikmalarning quyidagi guruhlarini ajratish mumkin: 1) predmet bo'yicha ko'nikmalar; 2) umumiy o'quv ko'nikmalar; 3) intellektual ko'nikmalar; 4) kommunikativ; 5) turli o'zgaruvchan hayotiy hodisalarga moslashish ko'nikmalari.

Ko'nikmalar guruhi bir-biri bilan bog'liq bo'lishi yoki ba'zan to'laligicha mos kelishi mumkin. Masalan: boshlang'ich sinfda o'zbek tili predmetiga oid ko'nikmalar kommunikativ va umumiy o'quv ko'nikmalari bilan mos keladi.

Malaka dastlab ongli xatti-harakat sifatida paydo bo'lib, keyinchalik xatti-harakatlarning avtomatlashgan ko'rinishi sifatida amal qiladi. Agar individ mashqlar natijasida muayyan operatsiyani avtomatik tarzda bajarsa, xatti-harakatlar malakaga aylanadi.

Malakalarning shakllanish jarayoni uzoq va murakkabdir. Aqliy faoliyat jarayonining qanday tashkil etilganligiga qarab malakalarni shakllantirish samaradorligini belgilash mumkin.

Ta'lim tizimida bugungi kundagi tezkor o'zgarishlar yangi pedagogik ishlanmalar bilan bevosita bog'liq. Bu ishlanmalar o'z mohiyati, mazmuni va o'ziga xos metodikasi asosan bilish jarayonining kechishini ta'minlashga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Ushbu jarayon o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra kelajak avlod faoliyatining mustaqil, ijodiy, tezkor, sifat va samaradorlik darajasida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, yangi, zamon talabiga javob bera oladigan pedagogik yangiliklarni ishlab chiqish, ularni bilish jarayoniga olib kirish, qo'llash kabi bir qator masalalarni har bir mintaqa, ta'lim muassasasi, fan mavzusi yechimida ijodiy hal etish bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Bu o'rinda olib kirilayotgan pedagogik yangiliklar qanchalik ta'sirchan va puxta ishlangan bo'lmasin, ularni innovatsion jarayonlarning boshqaruvisiz va to'g'ri tashkil etmasdan o'zlashtirib bo'lmasligini hisobga olish zarur.

Shuning uchun yangiliklarni olib kiruvchi tashabbuskorlar yangilik yaratish va uni amalga oshirish yo'lida ma'lum to'siqlarga uchraydi. Yangi shakl, metodika va pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'sha yangiliklarni tatbiq etish, o'zlashtirish va boshqarish to'g'risida puxta o'ylashni taqozo etadi.

Ta`limda innovatsion faoliyatni ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash pedagogik innovatika sohasiga taalluqlidir.

Pedagogik innovatika O'zbekistonda hali juda yosh fan bo'lib, u haqda so'nggi 20 yil atrofida gapira boshlandi. Bugungi kunda pedagogik innovatikaning nazariyasi va metodologiyasi to'g'risida ishlanmalar yetarlicha yaratilgani yo'q. Shu nuqtai nazardan yangiliklar yaratish, tatbiq etish, o'zlashtirish va ushbu jarayonni boshqarishning ijodiy g'oyalari, printsiplari, texnologiyalari, ayrim hollarda ularni namunaviy loyiha darajasiga olib chiqish masalasini hal etishga bugungi kunda soha mutaxassislari oldidagi asosiy muammo sifatida qaralmoqda.

Yangilik va yangilikni olib kirishni bir-biridan ajrata bilish kerak. Agar pedagogik yangilikni ayrim g'oya, metod, vosita, texnologiya yoki tizim deb tushunsak, yangilik olib kirishni yangilikni tatbiq etish va o'zlashtirish jarayoni deb tushuniladi. "Yangilik" tushunchasi "innovatsiya" tushunchasining sinonimi hisoblanadi.

Yangilikni olib kirishni konstruksiyalash yordamida ta`lim muassasalari darajasida, region va mamlakat miqyosida ta`lim tizimining rivojlanishini boshqarish mumkin. Pedagogik yangiliklar kiritishni tiplarga ajratishni asoslash, yangilik kiritishni rivojlanishidagi o'ziga xoslik va qonuniyatlarni o'rganish yangiliklarni kiritishga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Innovatikadagi tayanch tushuncha **innovatsion jarayondir**. Innovatsion jarayonlar ta`limda **uchta asosiy: ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik, tashkiliy boshqaruv** jihatdan qarab chiqiladi. Ushbu jihatlardan innovatsion jarayonlar kechadigan umumiy muhit va shart-sharoitlar ma`lum ahamiyat kasb etadi. Chunki mavjud shart-sharoitlar innovatsion jarayonlarga yordam berishi yoki to'siq bo'lishi mumkin. Innovatsion jarayon stixiyali yoki ongli boshqaruv xarakterida namoyon bo'ladi. Yangilikni kiritish – eng avval, o'zgarishlarni, sun'iy yoki tabiiy jarayonlardagi o'zgarishlarni boshqarish vazifasidir.

Bu o'rinda innovatsion jarayonlarni uchta jihati: yangilikni yaratish, o'zlashtirish va qo'llashni e'tiborga olish zarur. Aynan mana shu uch tarkibli innovatsion jarayon

pedagogik innovatikada o'rganish sohasi bo'lib, didaktikada esa tadqiqot ob'ekti hisoblanadi va u o'qitish jarayoni hamdir.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasi ta'limning u yoki bu darajasida innovatsion jarayonni ta'minlovchi kompleks qo'llaniladigan chora-tadbirlarni ifodalaydi. Bu o'rinda o'qitish jarayoni ham ana shu tadbirlarning uzvi sifatida ishtirok etadi. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalariga pedagogik jarayon komponentlarining o'zgarishlari, jumladan: mohiyat, maqsad, ta'lim mazmuni, shakl, metod, texnologiya, o'qitish vositalari, boshqarish tizimi va boshqalar kiradi.

So'nggi yillarda ta'lim oluvchilarning bu borada tashkil etayotgan faoliyatlarini loyihalashdagi rolini oshirish belgilovchi shaxsiy yo'nalishli pedagogik qarashlarning rivojlanishiga yuqoridagi fikr zid keladi. Pedagogikadagi innovatsiya jarayoniga iqtisoddagi, ishlab chiqarish va ishbilarmonlikdagi sohalarni mexanik tarzda olib o'tish mumkin emas. Pedagogika faniga shaxs to'g'risida bahs yurituvchi fan sifatida qaralganda, uning ob'ekti – o'rganuvchi shaxsga to'g'ridan-to'g'ri tashqi ta'sirni yuzaga keltirmasdan, balki ta'limni yangilash nuqtai nazaridan olib, o'quvchining bevosita ishtirokida amalga oshirishni taqozo etadi.

Pedagogik innovatika **ob'yekt** sifatida ta'limda innovatsiyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zlashtirish jarayoni sifatida tushuniladi. **Innovatsiya** esa ta'limga yangi elementlarni olib kiruvchi va natijada uni bir holatdan boshqasiga o'tishga olib keluvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlar tushuniladi.

Pedagogik innovatika predmeti - ta'limda sub'yekt - shaxsning yuzaga kelishiga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim faoliyatidagi tizimli munosabatlar tushuniladi (bular o'quvchi, pedagog, administrator – har biri sub'yektning shaxs sifatida ishtirokini ta'minlashga qaratilgan).

Bugungi kunda innovatsion o'zgarishlar quyidagi yo'nalishlarda:

- 1) yangi ta'lim mazmunini shakllantirish;
- 2) yangi o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 3) yangi dasturlarni o'zlashtirishning metod, usul, vositalarini qo'llash;
- 4) o'qitish jarayonida shaxsning o'z-o'zini aniqlashi uchun shart-sharoitlar yaratish;

5) o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashqi ko'rinishini o'zgartirish, ularning o'zaro munosabatlarida o'zgarishlar yasash, ijodiy innovatsion jamoani shakllantirish, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limni yaratish va rivojlantirishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ta'limda innovatsion jarayonlarni tadqiq etish bir qator nazariy-metodologik muammolarni keltirib chiqarmoqda: jumladan, an'anaviylik va innovatsiyadagi o'zaro munosabatlar, mazmun va innovatsion tsikl bosqichlari, ta'limda turli sub'ektlarning innovatsiyaga munosabati, innovatsiyalarni boshqarish, kadrlar tayyorlash, ta'limdagi yangiliklarni baholash mezonlarini asoslash va boshqalar. Bu muammoalarni hal etish esa boshqa, yuqori darajadagi metodologiyani yaratishni taqozo etadi. Chunki, har bir sohaning rivojlanishi ma'lum bir asos, fundament (metodologiya)ga ko'ra amalga oshirilishini hisobga olsak, pedagogik innovatika fan sifatida o'zining asosiga (metodologiyasiga) ega bo'lishi ham zaruriy shartdir. Shu jihatdan qaralganda, pedagogik innovatikaning metodologik asosini yuzaga keltirish o'ta dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda pedagogik innovatika metodologik tadqiqotning alohida yo'nalishi hisoblanadi.

Ta'limiy innovatsiyani ilmiy jihatdan asoslash mavjud metodologik bazaga tayanishni talab etadi. Buning uchun umumiy pedagogikaga taalluqli metodologiyaga aloqador bo'lgan ilmiy apparatdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Pedagogikada metodologiya nimani bildiradi? Bu borada filosoflar, soha mutaxassislari, pedagoglar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud. Ta'limda innovatsiyaning faoliyatli mohiyati va ularni o'qish shaklida ifodalash zarurati pedagogik innovatika metodologiyasini anglashda ma'lum talablarni, ya'ni o'zaro uzviy ikki jihatni – o'qish va faoliyatning o'zaro birligini taqozo etadi. Bu ikki o'zaro bog'liqlikdagi tomonlarni e'tiborga olib pedagogik metodologiyani aniqlashga harakat qilamiz. M.N.Skatkin fikricha, pedagogika metodologiyasi “Pedagogik haqiqatni ifodalovchi pedagogik nazariyaning asosi va tuzilishi to'g'risida bilimlarni o'zgartirishga yondashish printsiplari va usullari to'g'risidagi bilimlar tizimi”. V.V.Kraevskiy tomonidan keyinchalik rivojlantirilgan fikrga ko'ra: “Maxsus ilmiy

pedagogik tadqiqotlarning sifatini baholovchi bilimlar va dasturlarni asoslovchi faoliyat tizimidir”.

Pedagogik innovatika va uning metodologiyasi ta'limni modernizatsiyalashda tahlil etish, asoslash va loyihalashda zaruriy vosita bo'lib xizmat kilishi mumkin. Bunday global innovatsion jarayonlarni ilmiy asoslash esa ma'lum ishlanmalarga muhtojdir. Juda ko'plab yangiliklar: jumladan, umumiy o'rta ta'limda ta'lim standartlari, barcha ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kasbiy yo'nalishli ta'lim, yagona davlat imtihonlari va boshqalar innovatsion pedagogik yondashuvda qarab chikilmagan va unda ma'lum yangiliklarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonidagi yaxlitlilik va tizimlilik ko'zga tashlanmaydi.

Shuningdek, innovatsion jarayonlarning ta'lim muassasalarida boshqaruvini hisobga olish, uzluksiz innovatsion harakatlarni, pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish borasida ham nazariy asoslarni yaratish zarurati e'tiborga olinmog'i zarur. Innovatsion jarayonlar maxsus kadrlarni: pedagoglarni, boshqaruv sohasi kadrlarini

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, pedagogik innovatsiyalarni tiplarga ajratish muammosini ko'rib o'tish kerak. Aytilganlarni e'tiborga olgan holda 10 ta blokdan iborat bo'lgan pedagogik yangilik tizimini taklif etish mumkin. Har bir blok alohida asos va *differentsial yondashuvga* ko'ra shakllanadi. **Asoslar pedagogik yangiliklarning quyidagi parametrlari** bo'yicha ishlab chiqiladi: fan tuzilishiga, ta'lim sub'ektiga, amalga oshirish shartlari va yangiliklar xarakteriga munosabat nuqtai nazaridan qarab chiqiladi.

Ishlab chiqilgan tizim bo'yicha pedagogik yangiliklar quyidagi tiplar va mayda tiplarga bo'linadi:

1. Ta'lim tizimining tuzilmaviy aloqadorligi bo'yicha yangiliklar maqsadlarda, vazifalarda, ta'lim va tarbiyaning mazmunida, shakllarida, usullarida, o'qitish texnologiyalarida, o'qitish va ta'lim vositalarida, diagnostika tizimida, nazoratda, natijalarni boshqarish va b.da.

2. Ta'lim sub'yektining shaxsiy yondashuviga ko'ra o'quvchi va pedagog qobiliyatlarining rivojlanishi sohasida, ularning bilim, ko'nikma va malakalari, faoliyat usullari, layoqatlilik sohasidagi rivojlanishida.

3. Pedagogik qo'llanish sohasi bo'yicha: o'quv jarayonida, o'quv kursida, ta'lim sohasida, ta'lim tizimi va darajasida, o'qitish tizimi darajasida, ta'limni boshkarishda

4. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro faoliyatidagi tiplar bo'yicha: jamoaviy o'qishda, guruhli o'qishda, alohida o'qishda, repetitorlikda, oilaviy o'qishda va boshqalarda.

5. Funksional imkoniyatlari bo'yicha: sharoitlarga yangiliklar (ta'lim muhitini, ijtimoiy-madaniy sharoitlarni va boshqalarni yangilash), pedagogik vositalar, loyihalar, texnologiyalar va boshqalarga yangiliklar kiritish, boshqaruvdagi yangiliklar (ta'lim tizimi tuzilishida, boshqaruv faoliyatiga ularning faoliyatini yaxshilashni ta'minlovchi yangi taklif va qarorlar)da.

6. Amalga oshirish (yo'lga qo'yish) usullari bo'yicha: rejali, tizimli, davriy, stixiyali, tasodifiy.

7. Tarqalish ko'lamini bo'yicha: bitta pedagog faoliyatida, pedagoglarning metodik birlashmalari, maktab, maktablar guruhi, region, viloyatlar bo'yicha, xalqaro darajada.

8. Ijtimoiy pedagogik ahamiyati bo'yicha: ma'lum tipdagi ta'lim muassasalarida, pedagoglarning aniq kasbiy-tipologik guruhlar uchun.

9. Novatorlik tadbirlarning hajmi bo'yicha: tor doirada, ommaviy, global ko'rinishda.

10. O'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin daraja bo'yicha: korrektirovkali, modifikatsiyalash, modernizatsiyalash, radikal, inqilobiy ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Misol uchun o'quvchilardagi ta'limiy refleksiya bo'yicha innovatsiya o'qitishni diagnostika qilish tizimiga munosabat nuqtai nazaridan ham, o'quvchilar faoliyat usullarini rivojlantirish, o'quv jarayonida qo'llash ko'lamini yoki usuliga ko'ra ham, sharoitga yangilik kiritish va shu kabi boshqa jihatlardan ham tavsiflanishi mumkin.

Demak, pedagogik innovatika metodologiyasi pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va qo'llashga aloqador bo'lgan asos va tuzilish to'g'risidagi bilimlar va faoliyatlar tizimidir. Pedagogik innovatika metodologiyasi sohasiga bilimlar va shunga muvofiq faoliyatlar tizimi kirib, u nazariy ta'limot uchun xarakterli bo'lgan

o'ziga xos printsiplar, qonuniyatlar, asosiy tushunchalar va ular o'rtasidagi bog'liqliklar, vositalar, qo'llash sohalari va chegaralarini o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi.

II.2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash printsiplarining psixologik tahlili

Ob'yekt yoki hodisaning obrazi bilimlarning psixik materiali bo'lib hisoblanadi. Rivojlanishning psixik materiali esa psixik amallar sanaladi. Shuning uchun ham o'quvchilarni psixik rivojlantirish yangi psixik amallarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Sezish jarayoni. Obrazlarning turlariga qarab sezishning 13 turini ajratish mumkin: 1) ko'rish; 2) eshitish; 3) hid bilish; 4) ta'm bilish; 5) teri orqali sezish; 6) harorat; 7) og'riq; 8) kinestik; 9) muvozanat; 10) tebranishli; 11) organik 12) jinsiy; 13) hissiy.

Sezgilarining dastlabki to'rttasi tushunarli. Teri orqali (ya'ni taktik) sezishda ob'ektning ushlab ko'rgandagi, bosim o'tkazgandagi xarakteristikasi aks etadi. Kinestik sezishda esa makonda turli organlarning tanaga nisbatan holatini his etish tushuniladi. Bu sezgi suyak-muskul ishini boshqaradi va jismoniy tarbiya hamda mehnat darslarida rivojlantirish predmeti bo'lib xizmat qiladi. Bu sezgilar butun tananing makondagi holati uchun mas'uldir. Organik sezgilar ichki orgalar faoliyatidagi o'zgarishlarni belgilab beradi. Organik sezgilarining yuksak rivojlanganligi insonning hayot faoliyati uchun eng qulay sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Uzoq umr ko'ruvchilarning muhim xususiyatlaridan biri organizm uchun foydali va zararli narsalarni his eta olishlaridir.

Emotsiya sezgilari adabiyotlarda uncha o'rganilmagan. Inson organizmida quvonch, sevgi, qahr-g'azab singari his-tuyg'ular shakllanadi. Bu butun organizmning reaksiyasidir, unda texnika ham, xatti-harakatlar ham namoyon bo'ladi. Kishilar emotsiya sezgilarining turli xilligi bilan farqlanadilar. Kishi o'z emotsiyalarini qanchalik yaxshi his eta olsa, o'z xulq-atvorini shunchalik aniq

prognoz qila oladi, uning ichki hayoti shunchalik boy bo'ladi. Muhim emotsiyalar insonlarning xotirasida saqlanadi va shu sohadagi bilimlarga kiradi.

Idrok. Idrok sezishdan shunisi bilan farq qiladiki, bunda narsa va hodisalarning yaxlit obrazi shakllanadi. Odatda, adabiyotlarda idrokning besh turi ajratiladi; ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, teri orqali idrok qilish.

Tasavvur etish. Bu ikkilamchi obrazlarni tasavvur etish jarayonidir. Sezish va idrok etishga undovchi stimul mavjud bo'lsa, tasavvur etishga undovchi stimul bo'lmaydi. U psixika zahiralardagi axborotlardan yuzaga keladi. Adabiyotlarda tasavvur turlari aniq ko'rsatilmagan. Bizningcha, sezish turlari (13ta) qancha bo'lsa, tasavvur turlari ham shuncha.

Tasavvurlarni rivojlantirish o'quv materialini yaxshi tushunishga yordam beradi. Agar o'quvchida tasavvur uncha rivojlanmagan bo'lsa yangi materialni tushunishga va eslab qolishga qiynaladi.

Fikrlash - bu yangi obrazlar yaratishning psixik jarayonidir. Fikrlash jarayonida obrazlar ketma-ketligi idrok etilgan narsaning izchilligiga ko'ra o'zgaradi. Yozuvchilarda, ayniqsa, fikrlash jarayoni yaxshi rivojlangan.

Xotira. Xotiraning ham sezish singari 13 xil turi mavjud. Xotiraning 4 vazifasi ajratiladi: eslab qolish, saqlash, qayta xotiralash, esdan chiqarish. Xotirani rivojlantirish texnologiyasiga oid ko'pgina manbalar bo'lishiga qaramasdan, maktablarda o'quv materialini takrorlash orqali yod olish metodi ustunlik qilmoqda. Bolalarga yodda saqlash usullari kam o'rgatiladi. Xotiraning faqat hajminigina emas, balki eslab qolish tezligi va usullarini ham o'stirish kerak.

Tafakkur. Analitik-sintetik ishlov berish uchun taqdim etilgan materialning xususiyatiga qarab tafakkurning 4 xil turlari ajratiladi: predmetli, obrazli, belgili va simvolik (ramziy).

Predmetli tafakkurlarda amallar predmetlar yordamida amalga oshiriladi: bola qay tarzda turli narsalar yasayapti, ishchi detalga ishlov beryapti va hokazo. Obrazli tafakkurning manbai turli obrazlar bo'lib hisoblanaladi. Narsa yoki hodisalarni anglatadigan belgilar belgili tafakkur manbai hisoblanadi. Simvolik tafakkur simvolik belgilar orqali amalga oshiriladi. Masalan, algebradagi simvollar va hokazo. Ular

belgilardan shunisi bilan farq qiladiki, turli vaziyatlarda ular orqali turli ma'nolar ifodalanadi. Yoki ular umuman ma'noga ega bo'lmaydi. Agar so'z ma'nosi anglanmasa, belgidan simvolga aylanadi.

Tafakkur mantiqiy, tanqidiy, kreativ va intuitiv bo'ladi. Maktabda, asosan, mantiqiy tafakkurga o'rgatiladi. Chunki tanqidiy tafakkur uncha xush ko'rilmaydi.

Maktabda kreaktiv (ijodiy) tafakkurni rivojlatirishda "aqliy hujum" metodidan turli variantlarda foydalanish mumkin. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning turlari texnologiyalari mavjud. Bu haqda biz keyingi fasllarda kengroq to'xtalamiz.

Tarbiya jarayonining psixik manbai - bu munosabatlardir. Munosabatlar tarbiya jarayonining manbai bo'lishi uchun quyidagi mezonlar asosida o'lchanishi lozim: hajmi; tushunilishi, qabul qilishini; muntazamligi umumiyligi, uyg'ona olish kuchi. Pedagogik texnologiyalarni tasvirlash uchun umumlashtirilgan belgilarni kiritish mumkin. Bu belgilar ko'rgazmalar orqali o'qituvchi va o'quvchi xatti-harakatlarini ifoda etish imkonini beradi. Ularni shartli ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:

Bajaradigan roliga ko'ra

1.O'qituvchi O

2.O'quvchi-o'qituvchi O'

3.O'quvchilar o

4.Konsultant K

5.Sekretar S

6.Xronometr X

Vazifasiga ko'ra


1. O'qituvchi gapiryapti 

2. O'qituvchi eshityapti 

3. O'quvchining hatti-harakati yoki yoki yoki 


Predmetlarining belgilari


1.Doska 

2.Stol 


3.Kitob 

4.Daftar 

5.Kartochka 

6.Audiomagnitafon 

7.Kodoskop 

8.Videomagnitafon 

2-chizma. Psixologik materiallar va xatti-harakatlarning belgilari

Pedagogik printsiplari – bu pedagogik texnologiyalarni konstruksiyalash va qo'llash jarayonida amal qilinadigan dastlabki, asosiy holatdir. Pedagogik adabiyotlarda printsiplarning turli xil ko'rinishlari beriladi. Biz bu printsiplarni quyidagicha tasnif etdik.

1. Ta'limning tarbiyalovchi printsiplari.

Har qanda pedagogik texnologiyaning strategik maqsadi shaxsni shakllantirishga yo'naltirilishi kerak. Demak, bu printsiplarning psixik manbai munosabatlar sanaladi.

Munosabatlarning uch asosiy ko'rinishini ajratish mumkin: 1) qonunga amal qilish; 2) hamkorlik; 3) Men-kontsepsiya. Men-kontsepsiya javobgarlik, mas'ullik hissi bilan belgilanadi.

2. Rivojlantiruvchi ta'lim printsiplari.

O'quv jarayoni pedagogik texnologiyalarini konstruksiyalashtirishda tarbiyalovchilik effektlaridan so'ng rivojlantiruvchi effektlarni loyihalashtirish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu printsiplari o'quvchilarni psixik operatsiyalarni bajarish yoki aqliy emotsional, irodaviy, motivatsion sohalarda o'stirishga qaratilgan.

3. Ta'lim, tarbiya va rivojlantirishda muvoffaqiyatga erishish printsiplari.

U. Glaserning ta'kidlashicha, "... Agar kishi bir kun kelib o'zi uchun muhim bo'lgan biror bir narsadagi muvaffaqiyatini anglamasa, hayotda tom ma'nodagi muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Birinchi, haqiqiy real muvaffaqiyatning o'ziyoq barcha noxush omillarni yo'qotish uchun kifoya bo'la oladi. Muvaffaqiyat holatini hosil qilish bolani kelajakda yanada kattaroq natijaga erishishga ruhlantiradi".

U. Glasser tomonidan yana shunday qiziqarli fikr o'rtaga tashlanadi. Uning fikricha, bolaning o'tmishini yaxshi o'rganib, uncha ko'p kuch sarflanmay unga yordam berish mumkin ekan. O'quvchilarning o'z muvaffaqiyatlari to'g'risida fikrlarini o'stirish uchun quyidagi interaktiv usullardan foydalanish mumkin: "Teskari aloqali test", "Kichik guruhli teskari aloqa", "Besh kishidan so'rash", "Diktantni tahlil qilamiz", "Top, kim haqida gapiryapmiz" va boshqalar. (Bu o'yinlarni o'tkazish tartibi to'g'risida batafsil ma'lumotni keyingi faslda keltiramiz).

“Xatolarni tekshirishdan yutuqlarni topishga qarab” boruvchi bilimlarni baholash printsipti muvaffaqiyat printsiptini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

4. Yuz foizli teskari aloqa printsipti.

Har bir darsga o'quvchilarga yutuqlari haqida gapirib berish imkonini yaratish muhim vazifalardan sanaladi. Ya'ni har bir darsda har bir o'quvchi o'quv materialidagi aloqador bilimlar bo'yicha tekshirilib borilishi kerak.

Yuz foizli aloqa printsipti o'quvchini har bir darsga tayyor bo'lib kelishga undaydi. O'quvchilar darsda tanlab so'ralganda, ular tezda qiyin qoidani o'rganib oladilar va faqat undan so'rashlari mumkin bo'lgan darsgagina tayyorlanib keladilar. Shu tariqa o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qaraydigan ishyoqmaslar paydo bo'ladi. Mening bilimimga talab bo'lmasa, o'qib nima qilaman?-deb o'ylaydi ular.

Bu printsiptni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Eng avvalo uy vazifasi o'quvchilarga shunday hajmda berilishi kerakki, ular uyda bu vazifani boshqa fanlarni chetga surib qo'ymasdan bajara olsinlar. Afsuski, maktablarda uy topshirig'ining hajmini belgilab beruvchi aniq mezonlarga amal qilinmaydi. Har bir o'qituvchi bu masalaga turlicha yondashadi. Ba'zi o'qituvchilar bergan topshiriqlarini bajarish uchun ko'p vaqt sarflashga to'g'ri keladi.

5.Muntazam takrorlash printsipti. Didaktik adabiyotlarda bu printsipt “Takrorlash - bilimning onasi” iborasi orqali talqin qilinadi. Bu printsipt bir necha izohlarni talab etadi:

5.1. O'quv materialini bilan birinchi marta tanishganda uni besh-olti marotaba takrorlash lozim. V.F.Shatalov tizimida bu printsipt quyidagicha amalga oshiriladi: 1) o'qituvchi tomonidan yangi materialni tushuntirish; 2) ushbu materialni o'qituvchi tomonidan tayanch tushunchalar yordamida qisqa takrorlash; 3) o'quv materialini tayanch tushunchalar yordamida o'quvchi tomonidan darslik bo'yicha uyda takrorlash; 4) darsda tayanch signallarni o'quvchilar tomonidan yozma ravishda qayta xotirlash; 5) sinfning yarmi gapirib, yarmi tinglash shaklida o'zaro nazorat; 6) o'quvchi doska oldida javob beradi, hamma tinglaydi. Ana shunday miqdordagi takrorlash jarayonida o'quvchi butun o'quv materialini o'zlashtirib olmasa ham, tayanch tushunchalarni bilib oladi.

5.2. Doimiy ravishda 2-3 darsdan so'ng o'tilgan materialga qaytib, uni takrorlash. Bu o'rinda savol tug'ilishi mumkin; "Vaqtini qaerdan olamiz, axir dasturlarda bu nazarda tutilmagan-ku?" Masalani hal qilish mumkin. Agar e'tiborni tayanch tushunchalarga qaratsak, vaqt tejaladi va bunga imkon tug'iladi. Darsning psixologik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar darsda ko'p gapirib, ortiqcha axborotlar bilan vaqtini behuda sarflaydilar. Bundan qochish kerak.

5.3. O'quv yili boshida ishni materiallarni takrorlashdan boshlash. Chunki butun yozgi ta'til mobaynida ko'p narsalar bolalarning yodidan ko'tariladi. Bu tabiiy hol bo'lib, sog'lom normal psixika shundan tuzilgan. Har qanday esga olinmaydigan ma'lumot ongdan ong ostiga o'tib ketadi. Shuning uchun ham bilimlarni aktallashtirish uchun yil boshida ularni esga tushirish maqsadga muvofiqdir.

6. Samarali psixologik bosim prinsipi (o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham). O'quvchiga haddan tashqari og'ir yoki juda yengil vazifa berish yomon natijasiga olib keladi. Agar yetarli darajada psixologik yuk bo'lmasa, o'quvchi rivojlanmaydi.

Bu talab o'qituvchilarga ham taalluqli. Agar o'qituvchi butun dars davomida hamma yukni o'ziga olsa, bu psixologik ortiqcha bosimga olib keladi. Iloji boricha o'quvchiga ham o'quv jarayonini boshqarishga imkon berish kerak. Buning ko'pgina usullari mavjud. Masalan: o'quvchi-o'quvchi - o'zaro nazorat diktanti kabilar shular jumlasidandir.

7. O'quvchilarning o'quv jarayoniga maksimal ishtiroki prinsipi. Bu prinsip o'quvchilarning darsda faoliyatning turli ko'rinishlari bilan ishtirokini nazarda tutadi. Bu prinsipni boshqacha qilib, faoliyatga kirgizish prinsipi deb ham atash mumkin.

"O'quvchi bajara oladigan barcha" ishni o'qituvchi bajarmasligi kerak" degan prinsip asosida o'qitish bolalarda g'oliblik, yetakchilik xususiyatlarini tarbiyalaydi. Shuningdek, bu prinsip o'qituvchilarni va ota-onalarni ortiqcha qiyin vazifalardan ozod qiladi.

8. Rivojlanishning yaqin zonasiga yo'nalganlik prinsipi. Agar o'quvchi berilgan topshiriqni bajarishga qiynalsa, uni o'quvchi imkoniyatiga moslab

soddalashtirish lozim. Agar o'quvchi o'zining qandaydir bir kamchiligini hozir tuzatish imkoniga ega bo'lsa, unga tanbeh berishning hojati yo'q. Bu uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ta'sir ko'rsatsa ham te'skari ta'sir ko'rsatadi: atrofdagilarga nisbatan alamzadalik kayfiyatini paydo qiladi.

9.O'qituvchi va o'quvchilarni yagona maqsad yo'lida birlashtirish printsipti. Prinsiplar, maqsadlar, texnologiyalar o'quvchilarni bog'lab qo'ymasligi kerak, aksincha, ularga hayotda faol bo'lishlariga yordam berishi kerak. Iloji boricha o'quv jarayonini takomillashtirish uchun ko'proq munozara, aqliy hujum usullaridan foydalanish kerak. O'quv jarayoni texnologiyalari o'quvchi va o'qituvchilarga bog'lab qo'yilmasligi, balki uning birgalikda faoliyati mahsuli bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Amerika maktablarida shunday yondashuvlardan biri koalitsiya deb nomlanadi. Koalitsiya bu o'quvchi va o'qituvchilarning bir hamjamiyatga birlashishlaridir. Ular maktabda birgalikda yashaydilar: Alohida bir o'quvchining yutug'i barcha o'quvchilarning yutug'iga aylanadi. Bir bolaning muammosi hammaning muammosiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida turli texnologiyalardan foydalanish uchun, albatta, yuqorida sanab o'tilgan prinsiplarga amal qilinmasa, samarali natijalarga erishib bo'lmaydi.

1-bob bo'yicha xulosalar:

Pedagogik texnologiya deganda bilim, ko'nikma, malaka va munosabatlarni qo'yilgan maqsadga muvofiq konstruksiyalash, shakllantirish va nazorat qilishga qaratilgan operatsiya (amal)lar majmui tushuniladi.

Maktab pedagogik texnologiyalarining psixologik aspekti sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: maqsad, operatsiyalar, kommunikator(o'qituvchi)lar, retsipient(o'quvchi)lar, vositalar, prinsiplar.

Demak, texnologiya yuqorida ko'rsatilgan (M,O,K,R,V,P) komponentlarning birgalikdagi funktsiyasi.

Pedagogik texnologiyada o'qituvchi faoliyatini quyidagi komponentlarga ajratish mumkin: gnostik; loyihalovchilik; konstruksiyalovchilik; tashkilot-chilik va kommunikativlik.

Texnologiyalar yana quyidagicha tasnif etilish mumkin: ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va diagnostika texnologiyalari.

Pedagogik texnologiyalarning psixik metarialiga quyidagilarni kiritish mumkin: bilimlar, ko'nikmalar, malakalar.

Rivojlanishning psixik materialiga esa quyidagilar kiradi: **Sezish jarayoni.** Obrazlarning turlariga qarab sezishning 13 turini ajratish mumkin: 1) ko'rish; 2) eshitish; 3) hid bilish; 4) ta'm bilish; 5)teri orqali sezish; 6) harorat; 7) og'riq; 8) kinestik; 9)muvozanat; 10) tebranishli; 11) organik 12) jinsiy; 13) hissiy. **Idrok.** Idrok sezishdan shunisi bilan farq qiladiki, bunda narsa va hodisalarning yaxlit obrazi shakllanadi. **Tasavvur etish.** Bu ikkilamchi obrazlarni tasavvur etish jarayonidir. **Fikrlash** - bu yangi obrazlar yaratishning psixik jarayonidir. Fikrlash jarayonida obrazlar ketma-ketligi idrok etilgan narsaning izchilligiga ko'ra o'zgaradi. **Xotira.** Xotiraning ham sezish singari 13 xil turi mavjud. Xotiraning 4 vazifasi ajratiladi: eslab qolish, saqlash, qayta xotiralash, esdan chiqarish. **Tafakkur.** Analitik-sintetik ishlov berish uchun taqdim etilgan materialning xususiyatiga qarab tafakkurning 4 xil turlari ajratiladi: predmetli, obrazli, belgili va simvolik (ramziy).

II BOB

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY SHART-SHAROITLARI

II.1. Interaktiv usullarda o'qitishning maqsad va vazifalari

Jamiyat rivojining bugungi kundagi bosqichi bevosita, texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, axborot uzatish tizimida tobora yangi o'zgarishlar va texnologiyalar rivojlanib, kuchayib bormoqda. Insonlarda axborot va kommunikatsion texnologiyalar hamda kompyuter texnologiyasidan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda va ular takomillashmoqda.

Respublikamiz ta'lim sohasida ulardan foydalanish o'qitish sifatini oshiriga, o'quvchilarning fikrlash doirasini oshirish va kengaytirishga, ularda mustaqil o'zlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi zamonning dolzarb masalasiga aylanib qoldi.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) tarzida ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – talabalarining bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik talabalarining bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub`ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub`ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi,

ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'quv jarayonining interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi:

1. Ish tajribasi.
2. Metodik malaka.
3. Tayanch pedagogik-psixologik bilimlar.
4. Tashkilotchilik qobiliyati.
5. Didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari)ga ega bo'lish.
6. Talaba va talabalar guruhi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ishonch va hurmatga asoslanishi.
7. Talaba va talabalar guruhining o'zaro hamkorlikka erisha olish.
8. Ta'lim jarayonida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishi.
9. Axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarning samarali, o'rinli, maqsadga muvofiq va o'zaro moslikda qo'llashga erishish.

Shu bilan birga interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq. Ular:

1. O'quvchilarning darsga psixologik tayyorliklari.
2. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi.
3. O'quvchilarning muayyan darajada hayotiy tajribalarga egaliklari.
4. O'quvchilarning tengdoshlari va o'qituvchi bilan hamkorlik qilishga moyilliklari.

5. O'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablarga bo'ysunish xohishiga egaliklari.

6. O'quvchilarning darsga nisbatan mas'uliyatli yondashishlari, burchni anglay olishlari.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqarib olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Odatda interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- 1) individual;
- 2) juftlik;
- 3) guruh;
- 4) jamoa bilan ishlash.

Interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayonida talabalar:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;

- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi

Interfaol ta'lim texnologiyalari:

- talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- talabalarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

Interfaol ta'lim texnologiyalarining asosiy belgilari quyidagilardir:

1. Ko'p fikrlilik.
2. Suhbat (dialog).
3. Fikrlashga asoslangan faoliyat.
4. G'oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi).
5. Tanlash imkoniyatining mavjudligi.
6. Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish.
7. Refleksiya.

Interfaol ta'lim texnologiyalarining asosiy tamoyillari quyidagilar sanaladi:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:

1. Ijodiy topshiriqni bajarish.
2. Kichik guruhlarda ishlash test o'tkazish qaytar aloqa.
3. Treninglar o'tkazish.
4. Masofaviy ta'lim.
5. Chigal yozdi" mashqlarini tashkil etish muammoli vaziyatlarni hal qilish Didaktik o'yinlar (ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, imitatsiya, trenajyorlar vositasida tashkil etiladigan o'yinlar).
6. Ijtimoiy loyiha (musobaqa, intervyu, forum, aktsiya, tomosha va ko'rgazma)larni amalga oshirish.
7. Ijtimoiy zahiralardan foydalanish (mutaxassislarni taklif etish, tabiiy va ijtimoiy ob'ektlarga ekskursiyalar uyushtirish).
8. Yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rsatmali qurollar bilan ishlash, video va audiomateriallardan foydalanish).

Zamonaviy sharoitda O'zbekiston ta'lim tizimida interfaol metodlardan keng va samarali foydalanilmoqda. Quyida ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tiladi.

1. "Ijodiy ish" metodi talabalarni ijodiy faollikka undash orqali ularda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo'llash jarayonida talabalarining erkinligi ta'minlanadi, mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat yaratiladi. Ular mavjud bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradilar. Yagona talab talabalar mantiqan to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarini dalillar bilan isbotlay bilishlari lozim.

2. "Test" (ingl. "sinov", "tekshirish") texnologiyasi shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyat, ko'nikma va malakalarini tekshirishga xizmat qiladi. Ushbu metod talabalar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

3. “Debat” (fr. “debattere” so’zidan olingan bo’lib, “debats” – “bahslashmoq”) texnologiyasi yig’ilish, majlis yoki mashg’ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o’rtasida o’zaro bahs uyushtirish, ularning fikr almashishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O’quv mashg’ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi: 1) o’rganilayotgan mavzu yuzasidan bahs yuritilishi zarur bo’lgan muammo tanlanadi; 2) bahslashish uchun ikki nafar talaba, guruh yoki juftliklarning e’tiborlariga tanlangan muammo havola etiladi; 3) talaba, guruh yoki juftliklarning muammo yuzasidan fikrlari tinglanadi; 4) ekspertlarning fikrlari o’rganiladi; 5) debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi; 5) debat yakunlanadi.

4. “Nilufar guli” texnologiyasi didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan biri bo’lib, shaklan nilufar guli ko’rinishiga ega. Yagona asos, unga birikkan to’qqizta “gul barg” (kvadrat, to’rtburchak yoki aylanalar)larni o’z ichiga oladigan mazkur metod yordamida yetakchi muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi. Talabalarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan mazkur metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) hal etiladigan masala aniqlashtiriladi; 2) talabalar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiriladi; 3) talabalar kichik guruhlar (yoki juftliklar)ga biriktiriladi; 4) guruh yoki juftlik a’zolari markaziy to’rt burchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g’oya, vazifa)ni qayd etadi; 5) mazkur masala yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to’rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta xuddi shunday yordamchi chizmalarni hosil qiladi, ularda masalaning xususiy yechimlarini bayon etadi; 6) yordamchi shakllarda ifodalangan g’oyalarni “gulning barglari”ga, ya’ni alohida yana shunday majmuaga olib chiqadi (o’z navbatida ularning har biri yana bir muammo ko’rinishini oladi); 7) yordamchi chizmalarda ham asosiy muammo (g’oya, vazifa) yoritilgan chizma kabi “gul barglar”da xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi; 8) o’rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin; 9) har bir guruh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o’z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadilar; 10)

guruhlar tomonidan taqdim etilgan yechimlar muhokama qilinadi va eng to'g'ri variant aniqlanadi.

Talabalarga quyidagi sxema namuna sifatida taqdim etiladi:

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

5. “Sxema” texnologiyasi o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala mohiyatining asosiy xususiyat yoki belgilariga muvofiq sxema, tasvir yoki rasm orqali ifodalashini ta'minlaydi. Texnologiyani qo'llash talabadan masalaga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yodga oladi, eng muhim xususiyat, belgilarni aniqlaydi, ularni umumlashtiradi yoki tarkibiy qismlarga ajratgan holda sxemani yaratadi. Talabalarda fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu metod g'oyaning qisqa, aniq ifodalanishi uchun sharoit yaratadi.

6. “Kichik esse” (fr. “essai” – sinov, sinab ko'rish, ocherk, lotincha “exagium” - o'lchamoq) texnologiyasi kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur metod talabalar tomonidan

o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik essenini yaratish jarayonida talabalar mavzu g'oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladilar. Mashg'ulotlar chog'ida mazkur metodni qo'llash quyidagi tartibda yo'lga qo'yiladi: 1) o'qituvchi kichik essenini yaratish uchun muammo yoki masalani tanlaydi; 2) tanlangan muammo, masala bilan talabalarni tanishtiradi; 3) talabalar muammo, masalaning umumiy mohiyati yuzasidan fikr yuritadi; 4) talabalar shaxsiy fikrlarini bayon etish usulini belgilab oladi; 5) kichik essenini yaratadi; 6) kichik esse guruh talabalarining e'tiborlariga havola etiladi; 7) guruh a'zolari esse yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi.

7. “T-jadval” texnologiyasi o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko'p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) talabalar e'tiboriga o'rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi; 2) talabalar “T-jadval” metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladi; 3) talabalar guruh (juftlik)larga biriktiriladi; 4) ajratilgan vaqt oralig'ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya'ni jadvalning chap va o'ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadi; 5) guruh (juftlik)lar tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro solishtiriladi; 6) masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinib, yagona “T-jadval” shakllantiriladi.

“T-jadval” metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

Demak, interfaol ta`lim texnologiyalari va uning muhim tarkiiy elementi bo`lgan interfaol metodlar ta`lim jarayonini tashkil etish ko`rsatkichlarining o`zgarishini ta`minlaydi. Zero, zamonaviy ta`lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog`liqlikda ta`lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi. Qolaversa, ta`lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga qo`yilayotgan talablar ham tobora ortib bormoqda. Bu esa o`z navbatida o`qitish tizimiga ilg`or, shu jumladan, interfaol ta`lim texnologiyalari va metodlarini izchil tatbiq etishnitaqozo etadi.

O`qitish texnologiyalari

1. O`yinli texnologiyalar.

Talabalarning faolligini ta`minlovchi, o`qitish texnologiyalaridan biri-pedagogik ishbilarmonlar o`yini hisoblanadi. O`yin faoliyatiga qiziqish, talabalarning o`z-o`zini ifoda etish, ro`yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta`minlanadi.

O`yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o`zida ham rivojlanish ham o`rganish hisoblanadi. Pedagogik o`yin o`qitishning aniq qo`yilgan maqsad va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o`quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo`ladilar. Pedagogik o`yinlar o`yin uslubiga ko`ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo`yicha; sohalar bo`yicha; inbilarmonlar, imitatsion, dramalashgan o`yinlar.

*Imitatsion o`yinlar*-bo`lim, tsex, korxona tashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Imitatsion o`yinlar stsenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va ob`ektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tavsilotlarni o`z ichiga oladi.

*Operatsion o`yinlar* – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitlari modellashtiriladi. Ular ma`lum bir o`ziga xos operatsiyalarni: masalalar yechish, ma`lum bir usulni o`zlashtirishga yordam beradilar.

*Rolli o`yinlar* – ma`lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlar, hatti-harakat ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

Psixodrama va sotsiodrama – bu rolli o'yinga ishbilarmonlar teatri o'xshagan bo'lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga-jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

2. Muammoli o'qitish texnologiyasi

Muammoli o'qitish texnologiyasi – bu rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi bo'lib, faol bilim orttirish jarayonini rag'batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketma-ketlik stilini shakllantiradi. Muammoli o'qitish mohiyati o'qituvchi tomonidan talabalarning o'qishida muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o'quv (yaxshisi, hayotiy) masalalar, muammolarni savollar va topshiriqlarni yechish yo'li bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish faoliyatini boshqarishdan iborat.

Muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. Talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar va takliflar kiritadilar. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini aniqlaydilar, ularning kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu uslub talabalarning bilim qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'qituvchi muammoli o'qitishda talabalarning bilim orttirish faoliyatini shunday tashkil etishi lozimki, talabalar faktlarni tizimli tahlil etish asosida intellektual qiyinchiliklarni mustaqil hal eta olsin, xulosa chiqarish va umumlashtirishni bajarsin, qonuniyatlarni ifodalasin, olgan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llay olsin. Bunday o'qitishda talabalarda bilimlarni mustaqil olish, gipotezalarni oldinga surish va ularni isbotlash yo'li bilan aqliy faoliyatning yangi usullarini topish, bilimlarni qo'llanish ko'nikmalarini yaratish, diqqat va tasavvurni rivojlantirish qobiliyatlari shakllantiriladi. Piravordida bularning barchasi bilim orttirish faolligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

3. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi.

Tabaqalashtirilgan o'qitish o'quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

O'qitishni tabaqalash (bu tushuncha o'qitish jarayonini o'zi bilan bog'liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

4. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi

Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog va talaba yakkama-yakka o'zaro ta'sir ko'rsatadilar, talaba o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi. Afzalliklari: pedagogik jarayonning (mazmun, usul, sur'at va hokazo) talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi: talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida optimal pedagogik jarayonni tashkil etish.

Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustivor hisoblanadi. O'qitishning barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarida u yoki bu me'yorda individual yondashish qo'llaniladi, ammo individuallashtirilgan o'qitishda, individuallashtirish o'quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individuallashtirilgan o'qitishning asosi talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o'rgatish hisoblanadi.

5. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi

Dasturlashtirilgan o'qitish pedagog va talabaga zarur bo'lgan tezkor ichki va tashqi teskari aloqa shaklida amalga oshiriladi. Ichki teskari aloqa – talabaning o'zi tomonidan bajariladigan, o'quv materialining o'zlashtirilishini muttasil tahlil qilib borish. Tashqi teskari aloqa – pedagog yoki boshqaruvchi - o'qituvchi qurilma tomonidan o'quv materialining talaba tomonidan o'zlashtirilishini muttasil baholab borish.

Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy afzalliklarida biri doimo o'z-o'zini nazorat qilish va talabalarning o'quv materiali ustida ishlash jarayonida ularning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari ustidan nazorat qilishdir. Talabalar o'z-o'zlarini nazorat qilishlari bajarilgan jarayon natijalarini namuna bilan solishtirib ko'rish orqali amalga oshiriladi. Namuna esa, dasturning har bir qadamdagi ichki teskari aloqa materiallarida keltiriladi. Tashqi teskari aloqani amalga oshirish, ya'ni o'qituvchi tomonidan nazorat qilish ancha murakkab ishdir. Nazorat qilishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida turli xil nazorat qiluvchi qurilmalar qo'llaniladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish jarayonida talabalar juda faol ishlaydilar. Talabalar egallagan bilim albatta oldindan tuzilgan dasturning qanchalik darajada to'g'riligiga bog'liq. Dasturlashtirilgan o'qitishning yana bir xususiyati shundaki, u o'qituvchiga juda katta imkoniyatlar ochib beradi, ya'ni, o'qituvchi ijodiy ishlarini olib borishi hamda talabalar bilan ko'proq mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

6. Kompyuterli o'qitish texnologiyasi

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi asosan elektron ta'lim resurslari orqali amalga oshiriladi.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasining xususiyati shundaki:

- ta'lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan;
- o'qituvchi ta'lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o'qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslari faol integratsiyasi ta'minlanadi;
- o'qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ta'limning intensivligi va natijaviyligini oshiradi;
- ta'lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi .

Kompyuterli o'qitish jarayonini samarali tashkil etilishi o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi. Agar o'qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, ilg'or o'qitish texnologiyalari ham samara bermaydi .

Bu texnologiya o'quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon etish, o'qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkonini beradi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, o'qituvchi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida qatnashadi va talabalarning kompyuter bilan ishlagandagi rasmiy ko'nikmalariga faqat tuzatishlar kiritish va nazorat qilish bilan cheklanadi.

7. Modulli o'qitish texnologiyasi

Modul fanning fundamental tushunchalarini – ma'lum hodisa yoki qonun, yoki bo'lim, yoki ma'lum bir yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini o'z ichiga oladi **Modulli o'qitish** - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;

modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitish texnologiyasini afzalligi shundaki, modulni o'rganish-o'zlashtirish jarayonining asosini mustaqil bajariladigan ish-harakatlar tashkil qiladi,

modulni o'rganish mobaynidagi ish-harakatlar talabalar tomonidan mustaqil ravishda rejalashtiriladi, amalga oshiriladi, tekshiriladi va baholanadi, ish harakatlar o'zida texnikaviy, mehnat xavfsizligi, huquqiy, ekologik kabi masalalarni qamrab olishi kerak

8. Keys stadi o'qitish texnologiyasi

Keys - ishlab chiqishda sodir bo'ladigan, aniq muammoli vaziyatning tavsilotidir. Keys – metod ishlab chiqarish (kasb – hunar kollejidagita'lim jarayoni)msalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish va hal qilish metodi bo'lib, u zamonaviy ta'lim usullari orasida muhim ahamiyatga egadir.

Keys stadi- o'qitish texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo'yicha fikr yuritish taklif qilinib, bu vaziyat bayonida nafaqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan, undagi muammoni yechish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv material ham ifodalanadi. Vaziyatning bunday usulidagi tahlili, talabaning bo'lajak kasbiy faoliyati tajribasini oldindan egallashga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi o'qishga nisbatan qiziqish va motivlarning vujudga kelishiga asos bo'lib hisoblanadi. Keys usuli pedagogik o'yin tavsifidagi ta'lim turi bo'lib, o'zida o'yinni ijro etish bilan birga, intellektual yuksalish va nazorat malakasini ham mujassamlantiradi. Vaziyatning qulay tanlanganligi – uni olinayotgan buyum bilan belgilanadi. Vaziyatlar haqqoniy va shartli, me'yordagi yoki shartli, me'yordagi yoki favqulotli, nazoratli yoki nazoratsiz, kritik tavsiyaga ega bo'lishi mumkin.

Keys texnologiyasni qo'llash jarayonida talabalarni vaziyatni tahlil qilishga o'rgatish maqsadida, vaziyatni quyidagi tartibda bayon qilish mumkin:

- Muammoli (muammoli shunday tarkib tuziladiki, u muammoli vaziyatlar majmuasini ajratishni talab qilib, ularning turlari, yechilish usullariga muvofiq holda tanlanadi);
- Tizimli (vaziyatlar tarkibining tavsiflari va vazifalarini aniqlash);
- Sabab – oqibatli (vaziyatni keltib chiqargan sabablarni aniqlash);

- Tavsiyanomali (vaziyatni hal qilishda ishtirok etuvchilar amal qilishi zarur bo'lgan tavsiyanomalar tayyorlash);
- Dasturiy – maqsadli (joriy vaziyatlar uchun tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish);
- Tashhisli (vaziyatdagi faoliyat mazmunini tashxislash, uni modellash va o'ta maqbullashtirish).

O'quv mashg'ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha:

1. topshiriqni berish (topshiriqni bajarish muddatini belgilash. Keysning yechimini baholash tizimi bilan tanishtirish, darsning texnologik modelini aniqlash).
2. o'qituvchining kirish so'zi. Asosiy savollarning qo'yilishi.
3. talabalarni 4 – 6 kishidan iborat mikroguruhlariga ajratish.
4. talabalarning mikroguruhdagi faoliyatini tashkil qilish (mikroguruxlarni nomlash, yetakchilarni va ekspert guruxini aniqlash).
5. Mikroguruxlardagi javoblar bilan tanishishni tashkil qilish.
6. Mikroguruxlararo munozara (polilog)ni tashkil qilish.
7. o'qituvchining umumlashtiruvchi so'zi, uning vaziyat yechimi to'g'risidagi fikri.
8. Talabalarni ekspertlar tomonidan baholanishi.
9. Talabalarning mashg'ulot haqidagi fikrlari.
10. O'qituvchining umumlashtiruvchi so'zi. Mashg'ulot bo'yicha xulosalar chiqarish.

9.Kreativ o'qitish texnologiyasi

Ta'lim tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o'qitishning kreativ texnologiyasi bo'lib, talabaning ijodiy fikrlashini uzluksiz shakllantirib boruvchi va qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uning maqsadi – insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy imkoniyat (potentsial)ni rivojlantirishdir. O'qitishning kreativ texnologiyasi bajarilganda shaxs ijodkorlik ob'ekti darajasidan ijodkor subektga o'tkaziladi, o'quv material o'zlashtirish fanidan biron ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanadi. Kreativ texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunda ta'lim oluvchi

bilimlarni o'zining xususiy intellektual mahsulotini (kompyuter programmalarini, ixtirolar, tadqiqotlar va b.) o'qituvchi rahbarligida yaratish jarayonida oladi.

10. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi

Ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida talabada mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, talabada jarayonlar va hodisalar, ob'ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida talabada fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olish, tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish, mazmunini tushunish va amaliy faoliyatga bog'lash, amaliy mashqlar va tajribalar o'tkazib borish, mustaqil qaror qabul qilish, yangiliklar topish (izlanish) ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi ta'lim jarayonida fanning o'quv maqsadlari va ahamiyatini tushuntira olishi, talabadalarni kasbga qiziqtirish va yo'naltirish, mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, talabadalar bilim va ko'nikmalarini baholash bilan bir qatorda bilimlar manbaini ham baholab borishi, ya'ni doimiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

O'qituvchilar mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha talabada g intilishlarini olqishlashi va to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. talabada yakka xolda samaraliroq ishlaydimi; yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elektron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Talabada topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, talabadalarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim.

11. To'liq o'zlashtirish texnologiyasi.

To'liq o'zlashtirish texnologiyasi nazariyasi namoyandalri (B.Blum, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalar) o'rganiladigan mavzuga oid bilimlarni o'quv elementlariga ajratish, ta'lim maqsadlarini belgilash g', o'rganiladigan murakkab hodisalarni belgilash, ta'limning borishiga o'zgartirish, tuzatish, qo'shimchalar kiritish kabi qator texnologik talablarga rioya ilib ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish amaliyotini nazariy jihatdan asoslashdi.

12. Tizimli faoliyat yondashuvi asosida o'qitish texnologiyalari.

Tizimli faoliyat yondashuvi, eng avvalo kasb-hunar ta'limida qo'llaniladi. Buning yorqin misoli bo'lib YuNESKO ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Mehnat ko'nikmalari modullari (MKM-kontsepsiya, dastur)" hisoblanadi.

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- O'qitish mazmunini, mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida, shakllantiriladi;
 - Modulli dastur tarkibi mutaxassis faoliyati tarkibiga tuziladi;
- O'qitish dasturi, alohida o'quv elementlardan modullardan, modulli bloklardan iborat bo'ladi.

Modulli blok, o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'la turib, "boshlanishi va oxiri" mutaxassis ishi va harakatining aniq ko'rsatilgan tugallangan bo'lagidir.

- Har qaysi modulni o'rganish, "O'quv elementi" yoki "O'rganuvchi modul" deb ataluvchi maxsus ishlangan tuli uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi.

13. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosida o'qitish texnologiyalari

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni nglatadi.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- O'quv fanining fundamental tushunchalari – muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.
- O'quv fanimning bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga

(o'zlashtirishga) qaratilgan.

Odatda modul – 3-6 soatli ma`ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalash imkoniyati mavjud bo'ladi. Ya`ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi.

II.2. Boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan interaktiv o'qitish metodlari

Bugungi kunda interaktiv usullarning 100 dan ortiq turlari mavjud. Ammo ularning hammasidan ham boshlang'ich ta`limda foydalanib bo'lmaydi. Yuqorida ta`kidlab o'tganimizdek, interaktiv usullardan foydalanish uchun o'qituvchi ham, o'quvchilar ham, o'tkazish joyi ham maxsus tayyorlanishi kerak. Eng yaxshi usul bu o'quvchi va o'qituvchilarga o'rgatilgani emas, balki ularning o'zaro hamkorligi natijasida o'laroq, ehtiyoj ko'proq seziladiganidir. Shuning uchun o'qituvchi interaktiv usullardan boshlang'ich sinflarda foydalanganda quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

Birinchi qoida. Xonani ishlash uchun tayyorlashga e'tibor berish. Ya`ni sinf o'quvchilarning kichik va katta guruxlarda ishlashlari, o'rin almashishlari uchun qulay qilib tayyorlangan bo'lishi kerak. Ijodiy ishlar uchun kerakli materiallar oldindan tayyorlab ko'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi koida. Jarayon va vaqt reglamenti masalalariga e'tiborli bo'lish. Ishni boshlashdan oldin bu haqda kelishib olib, uni buzmaslikka harakat qilish. Masalan, o'quvchilaga har bir kishining fikrini sabr bilan tinglash, boshqalarning so'z erkinligi huquqini hurmat qilishni tushuntirish.

Uchinchi koida. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishga e'tibor berish. Avvaliga guruxlarni o'quvchilar ixtiyoriga ko'ra tashkil etish, keyin esa tasodifiy tanlov printsipligiga amal qilish.

To'rtinchi qoida. Ishga barcha o'quvchilar u yoki bu darajada jalb etilishi lozim.

Beshinchi qoida. O'quvchilarning psixologik tayyorgarligiga e'tibor berish kerak. Gap shundaki, darsga kelganda o'quvchilar birdaniga ishga kirishishga tayyor bo'lmaydilar. Shuning uchun ham ularni tez-tez rag'batlantirib turish kerak.

Oltinchi qoida. Boshlang'ich sinflarda bunday usullardan foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, deyarli barcha predmetlar bir o'qituvchi rahbarligida olib boriladi. Shuning uchun ham sinf sharoiti, materiallar va usullarni shunday tanlash kerakki, bir darsdan ikkinchisiga o'tish oson va qulay bo'lsin. Masalan, bir xil metoddan barcha darslarda foydalanish mumkin bo'lsin.

Boshlang'ich sinflarda interaktiv usulda o'qitishning qulayligi shundaki, o'quvchilar har doim bir sinf xonasida va bir o'qituvchi bilan ishlaydilar. Bu o'qituvchi uchun ham qulaylik tug'diradi. Lekin, albatta, yil davomida partalarning o'rnini o'zgartirib, guruxlarga juftliklarga bo'linib ishlab bo'lmaydi.

Interaktiv usullarning shunday turlari borki, ulardan hamma darslarda va hamma vaqt foydalanish mumkin. Quyida biz boshlang'ich sinflarda qo'llash qulay bo'lgan interaktiv usullarning ayrimlarini yoritib beramiz.

1."Aqliy hujum".

Bu usul tanlangan mavzu bo'yicha g'oyalarni, fikrlarni tanqidsiz qabul qilishga qaratilgan. "Aqliy hujum" usulining vazifasi asosiy g'oyalar bazasini yaratish uchun kichik guruxlar kuchidan foydalanishdir. Ushbu usulni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim.

- 1.O'quvchilarni ishlashlari uchun qulay qilib joylashtirish.
- 2.Fikr, g'oyalarni yozib borish uchun qog'oz yoki doskani tayyorlash.
- 3.Muammoni o'quvchilar ongiga yetkazish.
- 4."Aqliy hujum" talablarga rioya qilish. Bular:
 - a) g'oyalar aytilganda ularni izohlash yoki baholash qat'iyan man etiladi;
 - b) fikrlarni erkin bayon etilishini ta'minlash;
 - v) g'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;
 - g) boshqalarning fikrini ilg'ab olish va ularni rivojlantirish.
- 5.Fikrlarni so'rash va ularni aytish bilan tezgina yozib qo'yish.
- 6.G'oyalar yozilgan qog'oz to'lsa, uni devorga yoki doskaga ilib qo'yish.

7.O'z fikrini bildirib, yangi g'oyalarning tug'ilishiga turtki berish.

8.Birovlarning fikridan istehzoli kulish yoki piching qilishga yo'l qo'ymaslik.

9.G'oyalar tugamaguncha ishni to'xtatmaslik.

“Aqliy hujum” usulini guruxli yakka va juftliklar asosida tashkil etish mumkin. “Aqliy hujum” juftliklar asosida tashkil etilganda o'quvchilarga alohida mavzu bo'yicha bilganlarini yoki o'z fikrlarini alohida qog'ozga mustaqil yozish aytiladi. Bir necha daqiqadan so'ng yonma-yon o'tirgan o'quvchilar bir-birlariga o'girilib, yozganlarini o'qib beradilar. Ro'yxatni o'zaro solishtirib, juftliklarning fikrlari yozilgan ro'yxatlar doskaga ilib qo'yiladi. O'rta tashlangan mavzu bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini aytib bo'lganlaridan so'ng, o'qituvchi ularning fikrlarini korrektsiyalaydi va to'ldiradi. Bu usuldan darsning barcha bosqichlarida va tiplarida foydalanish mumkin.

2.Klaster (shoxchalar) usuli.

Klaster usuli fikrlarning xilma-xilligi, o'rganilayotgan tushuncha, hodisa va voqealarning xususiyatlarini ochib bera olish, erkin va ochiq fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradigan pedagogik metoddir. “Klaster” so'zi “bog'lash” yoki “shoxcha” degan ma'noni anglatadi. Klasterga bo'lish yangi assotsiatsiyalarni paydo etadi, mavjud bo'lgan bilimlarga yo'l ochadi, tanlangan mavzuga oid yangi tasavvurlarni fikrlash jarayoniga jalb qiladi. Klaster metodini yangi mavzuni o'rganishni boshlashdan oldin o'tkazsa, yaxshi natija beradi. Bu usul tez va oson esda saqlanadi.

Klasterni o'tkazish tartibi:


1.Sinf doskasi yoki katta qog'ozning o'rtasiga tayanch so'z, so'z birikmasi yoki gapni yozish.

2.Shu so'z, mavzu bilan bog'liq so'z yoki iboralarni yozish.

3.Tushuncha yoki g'oyalar o'rtasidagi mos bog'liqliklarni aniqlash.

4.Bog'liq yoki aloqador tushunchalarni ko'proq topishga harakat qilish.

5.Birinchi marta klaster usulini qo'llaganda butun sinf uchun tushunarli bo'lgan mavzuni tanlash. Maslan, “Vatan”, “bahor” va hokazo.



4-chizma. “Vatan” mavzusiga oid klaster namunasi

3. Binar dars.

Maqsad:

- narsa-hodisalarni tizimlilikning to’rtinchi darajasida o’rganish;
- o’qituvchilarning o’zaro hamkorligini rivojlantirish;
- o’quvchilarda predmetlarning o’zaro bog’liqligi, dunyoning bir butunligiga ishonch hosil qildirish.


Binar darsni o’tkazishda bir nechta o’qituvchi ishtirok etish mumkin, yoki boshlang’ich sinf o’qituvchisining (bir o’zi bir nechta predmetdan dars berganligi uchun) o’zi o’tkazishi mumkin.

Masalan, matematika bilan jismoniy tarbiya darsini birgalikda olib borish. Mashg’ulot kichik maydonchada olib boriladi yoki sinf maxsus tayoyrlanadi. Matematik topshiriqlar bilan estafeta o’tkaziladi. Buning uchun o’quvchilar 2, 3 yoki

4 guruxga ajratiladi. Har bir guruxda 1 tadan a`zo o`qituvchining komandasi bilan oldinga sakrab chiqadi, qator oralab yugurib borib, doska oldida terib ko`yilgan kartochkalardan birini oladi. Unda yozilgan misolni doskaga yozib, yechadi va orqaga o`girilib bir oyoqda sakrab o`rniga keladi. Keyin guruxning navbatdagi a`zosi o`yinni davom ettiradi. O`quvchilarning yugurish va sakrashlaridagi qoidalar jismoniy tarbiya o`qituvchisi tomonidan tushuntiriladi va kuzatib boriladi. Misollarni yechish tartibi esa sinf o`qituvchisi tomonidan tushuntiriladi, va kuzatib boriladi. Mashg`ulotning bunday ko`rinish shunisi bilan qiziqki, bunda jismoniy mashqlar orqali aqliy faoliyat faollashtiriladi.

Mashg`ulotda musiqa o`qituvchisini ham taklif etish mumkin. O`quvchilar estafeta o`yinini matematika yoki jismoniy tarbiyaga oid biror qo`shiqni kuylab turib yoki shunchaki bir sho`x kuy fonida bajarishlari mumkin.

Binar dars predmetlararo aloqani rivojlantiradi va ta`limning yaxlitligi, tizimlilikini ta`minlaydi.



4. O'zaro diktant.

Maqsad:

-o'quvchilarning turli predmetlar (ona tili, matematika, o'qish) bo'yicha savodxonligini oshirish;

-mashqni bajarish jarayonida musobaqa ko'nikmalarini shakllantirish;


-predmetga qiziqishni oshirish;

-o'qituvchini daftar tekshirish ishidan ozod qilish.

1.Tayyorgarlik bosqichi. Diktant uchun turli matnlar tayyorlanadi. Bu matnlar eski kitoblardan, jurnallardan olingan bo'lishi mumkin. Agar rasmlar bilan berilgan bo'lsa, yana yaxshiroq bo'ladi. Matn hajmi 4-12 qator bo'lishi mumkin. Uning mazmuni o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi kerak. Matning hajmi va murakkabligi sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qarab tanlanadi. Tayyorlangan matnlarni qalin kartonga yopishtirgan ma'qul. Bu ishni o'qituvchi ham, o'quvchilar ham bajarishlari mumkin.

2.Darsda o'quvchilarning ishlash tartibi.

2.1.Har bir o'quvchi 1 tadan matn olib, ichida o'qiydi. Bu paytda sinf ham tinch bo'lishi kerak.



2.2.O'quvchilar matn o'qib bo'lganlaridan so'ng, o'qituvchi ularning matn bo'yicha savollariga javob beradi.

2.3. Hamma o'quvchilar juftliklarga ajraladilar. Har bir juftliklardagi bir o'quvchi o'z kartochkasidagi birinchi gapni o'qiydi.

1-o'quvchi
o'qiydi

2-o'quvchi
tinglaydi



Ikkinchi o'quvchi gapni oxirigacha tinglaydi.

2.4. Keyin tinglagan o'quvchi birinchi o'quvchi taqdimoti ostida yoza boshlaydi. Yozayotgan o'quvchi matnga qarashi mumkin emas.

1-o'quvchi
o'qiydi

2-o'quvchi
yozadi



Shu tarzda 2-3-gap matn oxirigacha o'qiladi va yoziladi.

2.5. Keyingi bosqichda rollar almashadi. Yozgan o'quvchi endi o'z matnini o'qiydi, narigisi esa yozadi.

1-o'quvchi
yozadi

2-o'quvchi
o'qiydi




2.6. Diktant yozib bo'lgandan so'ng o'quvchilar o'zaro daftarlarini almashtiradilar va yozilganlarni kartochkalarsiz tekshiradilar. Xotolarni yashil qalam (ruchka) bilan tuzatadilar.

1-o'quvchi
tekshiradi


2-o'quvchi
tekshiradi




2.7. Keyingi bosqichda o'quvchilar yozgan diktantlarini kartochkaga qarab tekshirib chiqadilar, xotolarini qizil qalam (ruchka) bilan tuzatadilar.



2.8. Ikkala o'quvchi birgalikda avval birinchi diktantni, keyin ikkinchisini tekshirib chiqadilar. Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchi ikkinchi o'quvchi nazoratida o'z xotolarini og'zaki tahlil qiladi, ikkinchi o'quvchi unga yordam beradi.



2.9. Har bir o'quvchi o'z daftariga xatolar tahlilini yozadi.




2.10. O'quvchilar bir-birlarining daftarlarini olib, tekshirganlariga yana bir bor ko'z yugurtiradilar va o'z ism-shariflarini yozadilar: "Tekshirdi: Saidov A".

O'quvchilarga baho qo'yishni ham taklif etish mumkin. Lekin buning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy tomoni shundaki, bolalarda mas'uliyat hissi

ortadi. Salbiy tomoni agar past boho qo'yilsa, o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatga putur yetkazilishi mumkin.

2.11. Shunday qilib, juftliklar ishlarini yakunlaydilar va o'zaro matnlarini almashtirib tarqaladilar. Har bir o'quvchi o'zi uchun yangi o'quvchini tanlaydi.



Shu tariqa ish olib borilganda har bir o'quvchi har qaysi matn ustida ikki marta ishlaydi – birinchi marta o'qib, yozdiradi, ikkinchi marta yozadi.

O'qituvchi qator oralab yurib, o'quvchilarning qanday ishlayotganini kuzatadi. Diktovka qilish va tekshirish bo'yicha maslahatlar beradi, orqada qolayotganlarga yordam beradi.

Agar bu usul to'g'ri tashkil etilsa, sinfda savodxonlik sezilarli darajada oshadi. O'quvchilarda o'zaro hamkorlik, muomala qila olish, bir-biriga ko'maklashish, o'zaro o'rtoqlik ko'nikmalari rivojlanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, diktant uchun tanlangan mantdagi so'zlar 3-sinf uchun 20-30 so'z, 4-sinf uchun esa 35 so'zdan oshmasligi kerak.

5. Berilgan materialni sinfda yod olish.

Maqsad:

- o'quv materialini sinf yod olish (she'r, qoida, aniqlik va h.o);
- o'quvchilarning xotirasini o'stirish;
- umum o'quv ko'nikmalari bo'yicha tajriba almashish;
- o'zaro hamkorlikni tarbiyalash.

Bu usul barcha darslarda o'quv materialini yod olish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari har doim ham berilgan materialni yod ololmasliklar mumkin. Shuning uchun ham bu usul ularda o'quv materialini yod olish malakalarini rivojlantiradi.

1.O'qituvchi bugungi dars o'quv materialini yod olishga bag'ishlanishini o'quvchilarga aytadi. Topshiriq aytiladi. Masalan: she`rni yodlash. O'quvchilar juftliklarga ajratiladi.

2.Birinchi o'quvchi she`rning birinchi qatorini ovoz chiqarib o'qiydi va yozilganini tushunishga harakat qiladi. Misralar soni o'quvchilarning yoshiga qarab belgilanadi. Ikkinchi o'quvchi kuzatib boradi va o'qilganlarni tushunishga harakat qiladi.

3.Tushunarsiz bo'lgan so'zlar tahlil qilinadi. Bu o'rinda lug'atlardan ham foydalanish mumkin. Tushunarsiz so'zlar ma`nosini o'qituvchidan ham so'rash mumkin. Matnni tushuntirish uchun ekspertlarni ham tayinlash mumkin. Savollarni o'quvchilar ekspertlarga yuboradilar.

4.Birinchi o'quvchi she`r misrasini takror o'qiydi va eslab qolishiga harakat qiladi. Ikkinchi o'quvchi diqqat bilan tinglaydi va eslab qolishiga harakat qiladi.

5.Birinchi o'quvchi kitobni oladi. Ikkinchi o'quvchi yoddan aytishga harakat qiladi. Agar biror so'zni esdan chiqarsa, birinchi o'quvchi aytib turadi.

6.Ikkinchi o'quvchi kitobni oladi, birinchi o'quvchi dastlabki ikki misrani yoddan aytishga harakat qiladi. Ikkinchi o'quvchi yordam berib turadi. Bu hol to ikkala o'quvchi ham belgilangan ikki misrani yod olmaganlaricha davom ettiriladi. Keyin juftlik tarqaladi va o'quvchilar o'zlariga yangi sherik topadilar.

7.Yangi juftlikda birinchi o'quvchi oldingi juftlikda yod olgan misralarni aytib beradi. Uchinchi o'quvchi yoddan yoki kitobga qarab tekshiradi. Keyin o'rni almashinadi.

8.Shundan so'ng keyingi misralar xuddi oldingisidek, o'qib, tinglab, kuzatib yod olinadi to she`r oxirigacha.

Sinfda she`r yodlash ustida ishlash vaqtga ko`ra davom ettiriladi. Bu darsning bir qismi yoki butun bir darsning o`zi bo`lishi mumkin. Yod olnadigan materialning hajmi har xil bo`lishi mumkin.

6. Matnlarni almashtirish.

Maksad:

- boshlang`ich sinflarda o`qishga o`rgatish;
- hamkorlikka o`rgatish;
- o`qishga qiziqishni oshirish.


Bu usul boshlang`ich sinflarda alifbodan keyingi davrda ko`llaniladi.

I.Tayyorgarlik bosqichi. O`qituvchi qisqa matnlarni tayyorlaydi. Ular 4-12 qatorli, rasmlar bilan berilgan bo`lsa, yanada yaxshiroq bo`ladi. Bu matnlarni eski kitoblardan ham qirqib olish mumkin.

II.O`rin almashib, juftliklarda ishlash.

1.Har bir o`quvchi matn yozilgan kartochkalardan birini oladi va o`z matnini mustaqil o`qib chiqadi. O`qituvchi savollarga javob beradi va nima tushunarsiz bo`lsa, tushuntiradi.

2. O`quvchilar o`zlariga sherik qidiradilar. Juftlikdagi bir o`quvchi o`ziga berilgan matnni o`qiydi. Ikkinchi o`quvchi tinglaydi, o`qiyotgan o`rtog`ining matnini kuzatib borishi ham mumkin. Keyin tushunmagan joylarini so`rashi ham mumkin.



3.Keyin ikkinchi o`quvchi matnni o`qiydi, birinchisi tinglaydi.



4. Shundan so'ng ular matnlarini almashtiradilar va o'zlariga yangi hamsuhbat topadilar.

Agar matnlar qiziqarli bo'lsa, o'quvchilar ishtiyoq bilan ishlaydilar. Har biri ko'proq matn o'qishga harakat qiladi. O'qituvchining qo'shimcha instruktsiyasi o'quvchilarni yanada yaxshiroq ishashga yo'naltirishi mumkin. Masalan: "Bolalar, 15-20 minutdan keyin har biringiz nechta hikoya o'qiganingizni aytasiz. Yaxshi o'qiy olish uchun nima qilish kerak?".

O'quvchilar qancha ko'p yangi suhbatdosh bilan uchrashsalar, ularda, o'qish malakasi shuncha ortadi.

7. Top, kim haqida gapiryapmiz.

1. Maqsad: o'zinga ishonchni shakllantirish. Turli holatlarda inoshnch bilan harakat qilishga o'rgatish.


2. Ishtirkchilarning yoshi: 5 dan 17 yosh gacha.

3. Vaqti: 7-20 daqiqa.

4. Tayyorgarlik: o'qituvchi guruh bilan ishlay olish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

5. Materiallar: yo'q.

O'qituvchi o'quvchirlarga "Top, Kim haqida gapiryapmiz" o'yinini taklif qiladi. Qolganlar bilan kim haqida gaplashishini aniqlab oladi. Shu tariqa o'quvchilardan biri tanlanadi. O'yin qoidasi tushuntiriladi. "Faqat o'quvchining yaxshi tomonlari haqida gapirilsin. Kamchiliklari haqida gapirish mumkin emas". Shundan so'ng chiqib turgan o'quvchi sinfga chaqiriladi. O'qituvchi kimligini topish kerak bo'lgan o'quvchining sifatlarini aytishni taklif qiladi. O'quvchilar faqat 1 tadan ta'rif aytadilar. Odatda, boshlang'ich sinflarda shunday sifatlardan boshlanadi: "U har doim darslarni bajarib keladi", "U onasiga yordam beradi", "U boshqalarga g'amxo'rlik qiladi". Shunday ta'riflardan so'ng topayotgan o'quvchi topishi kerak bo'lgan o'quvchining ismini aytadi. O'ylab topish jarayoni to o'quvchining ismi topilguncha davom ettiriladi.



Bu usulni sinf soatlarida barcha o'quvchilar bilan qo'llash mumkin. U sinfda psixologik iqlimning yaxshilanishiga yordam beradi, tuzatuvchi va davolovchi samaraga ega.

8. Plastilin.

Maqsad:

- o'rganilayotgan materiallarni, uning ma'nosini plastilinda ifodalash uchun o'quvchiga yordam berish.
- o'quvchilarni so'zning tub mohiyatini anglashga o'rganish;
- o'z fikrlarini moddiylashtirish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish;
- o'z fikrlarini ijodiy bayon eta olishlariga ishonch hissini rivojlantirish.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, so'zlarning ma'nosini tushunish o'quvchida qiyinchiliklarni tug'diradi, ayniqsa, boshlang'ich sinfda. Ahvol shunday davom etsa, biroz vaqt o'tgandan so'ng bolalar o'quv jarayoniga moslashadilar va so'zlarning tub mohiyatiga uncha e'tibor bermay qo'yadilar. Shu tariqa ular o'zlarini ortiqcha informatsiyadan himoya qiladilar. Agar barcha predmetlardan o'qituvchilar yetkazadigan hamma narsani tushunishga harakat qilsalar, bunga sutkalar ham yetishmaydi. Ammo so'zlarni tushunish, ma'nosini anglash muammosi ochiq

qolmoqda. Ko'pincha, juda oddiy so'zlar ma'nosi tushunilmay qolib ketadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun "plastilin" usulidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Plastilin yordamida istalgan fikrni ifodalash mumkin. Fikrlarni plastilin yordamida ifodalash jarayonida uning mohiyatiga chuqur kirib boriladi.

1.O'quvchiga biror so'z aytiladi yoki o'zi uni o'ylab topadi. U bu so'zni butun tavsilotlari bilan tasavvur qilishi kerak. Masalan: bolaga "soat" so'zi aytiladi.

2.O'quvchi plastilinni olib, undan berilgan so'z anglatgan ob'ekt yoki hodisa elementlari yasay boshlaydi. Bu o'rinda badiiy mahorat ahamiyatga ega emas, u baholanmaydi. Elementlar katta o'lchamda bo'lishi kerak.O'lcham qancha katta bo'lsa, tushunish ham shuncha chuqur bo'ladi. Masalan: bola soatni yasayapti. U sonlarni o'ziga qanday ma'qul bo'lsa shunday ifodalaydi.

3.Birinchi elementni yasab bo'lgandan so'ng, o'quvchi unga yorliq yopishtirib qo'yadi: qog'ozdan bir bo'lak qirqib olib, unga "sonlar" deb yozadi.

4.Ikkinchi elementni yasaydi, masalan soat strelkasi. Qog'oz parchasiga "soat strelkasi" deb yozib, yopishtirib qo'yadi. Ish shu tarzda davom ettiriladi. Agar bola bir hodisadan boshqasiga o'tmoqchi bo'lsa, buni strelkalar bilan ko'rsatib qo'yadi. Aks holda yasalgan narsaning mohiyatini tushunib bo'lmaydi.

5.Bola barcha elementlarni yasab bo'lganidan so'ng ob'ekt yoki hodisaning umumiy nomini yozib yopishtiradi. Masalan: "Soat".

6.O'quvchi so'z anglatgan ob'ektni yasab bo'lgach, uning nomi ko'rsatilgan yorliqni olib qo'yadi. Shundan so'ng o'qituvchi yoki partadosh sherigi u nimani yasaganini topadi. Agar uning nimaligi tezgina topilsa, demak ish yaxshi bajarilgan deb hisoblanadi. Bola yasagan narsasiga og'zaki izoh bermasligi kerak. Hamma izohni yasalgan elementlarning o'zi ifoda etib turishi kerak.

Bola qancha ko'p elementlarni yasasa so'zning mohiyatini shuncha yaxshi anglab yetgan bo'lib hisoblanadi.

9. Ruxsatnoma.

Maqsad:

-bu usulni biror bir predmetga qiziqishni oshirish maqsadida o'tkazish mumkin;

-u o'quvchilarning savodxonligini oshiradi;

-muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

1.Sinfning yarmi nazoratchi (masalan: bojxona nazoratchisi) etib tayinlanadi. Har bir nazoratchi o'quvchiga parol etaloni beriladi. Parol bir so'zdan, iboradan yoki gapdan iborat bo'lishi mumkin. Varaqchalarda o'quvchilar darsda o'rgangan qoidadan olingan so'zlar yoki gaplar yozilgan. Nazorat punktidan faqat diktovka qilingan so'zlarni to'g'ri yozgandan keyingina o'tish mumkin.

Barcha nazoratchilar sinfda shunday joylashtiriladiki, bir-biriga xalaqit bermasin. Qolgan barcha ishtirokchilarning qo'lida parolni yozish uchun qog'oz bor.


2.Keyingi bochqichda har bir o'quvchi o'zi xohlagan nazorat punkti oldiga keladi. Nazoratchi unga parolni o'qiydi.

3.O'quvchi parolni nazoratchi qog'oziga qaramasdan yozadi.

4.Nazoratchi o'quvchining qo'lidagi qog'ozni oladi va qizil ruchka bilan tekshirib chiqadi. Keyin qog'ozga qarab yashil rangli ruchka bilan tekshirib chiqadi.

5.Agar javob to'g'ri bo'lsa, nazoratchi o'z etalon kartochkasini o'quvchiga beradi va unga o'z postini topshiradi. O'zi boshqa postdan xuddi shu tariqa o'tishga harakat qiladi. Intsenirovka materialni o'zlashtirish uchun qancha vaqt talab etilsa, shuncha davom ettiriladi. Ish so'ngida o'qituvchi har bir o'quvchini baholaydi. Maslan, beshta postdan o'tsa, "besh"; to'rtta postdan o'tsa, "to'rt".

Bu intsenirovka orqali o'quvchilarda qiyinchiliklarni yenga olish ko'nikmalari rivojlantiriladi.



10. Inshoni tahlil qilamiz.

1.Maqsad:

Ta`limiy. O`quvchilarni insho yozishga, o`z fikrini ijobiy va tushunarli bayon eta olishga o`rgatish;

Rivojlantiruvchi. Ijodiy fikrlash va yozma nutqni rivojlantirish;

Tarbiyaviy. Ijobiy "Men-konsepsiya"ni, o`z qadr-qimmatini sezish, o`z fikrlarini bayon eta olishga ishonchni takomillashtirish.

Yoshi: 1-sinf dan 9-sinfgacha.

Vaqt: insholar tahlili 10 minutdan 40 minutgacha.

O`qituvchining tayyorgariligi: bu usulni o`tkazish texnologiyasini o`rganish.

Matriallar: o`quvchilar inshosi yozilgan daftarlar.

1. O`qituvchi o`quvchilarga topshiriq beradi. Buni istalgan predmetdan berish mumkin. Bu intsenirovka, ayniqsa, ona tili va o`qish darslarida qo`l keladi. O`quvchilarga tanlangan yoki erkin mavzu asosida insho yozish taklif etiladi va qisqa yo`naltirish beriladi. Agar bu bolalarning nutq boyligini o`stirishga qaratilgan bo`lsa, imloviy xatolarga unchalik e`tibor berilmaydi. Chunki xato qilib qo`yishdan qo`rqish hissi bolalarning ijodiy fikrlashlarini bo`g`ib qo`yishi mumkin.

2. Hamma o`quvchilar topshiriqni yo sinfda yoki uyda bajaradilar.

3. O'qituvchi daftarlarni terib oladi va xatolarni tekshirib, ular ichidan yaxshi yozilganlarni o'zi uchun ajratib qo'yadi. Daftarga hech qanday tuzatish yoki baho qo'ymaydi.

4. To'rtinchi bosqichda ish sinfda olib boriladi. O'quvchilar kichik guruhlariga (5-7 kishidan iborat) ajratiladi. O'qituvchi yo'riqnomasi: "Sizga guruhingizdan bir kishining ishini tahlil qilish topshiriladi. Tahlil davomida faqat sizga nimalar yoqqanligini aytasiz. Agar kamchiliklar bo'lsa, uni chetlab o'tasiz, aytmaydiz. Har bir kishi inshoning kamida bitta yaxshi tomonini topib aytishi kerak".


5. Shundan so'ng har bir guruhdan inshosi tahlil qilinadigan o'quvchi aniqlanadi.

6. Keyin barcha guruhlar bir vaqtda insholarni o'qib tahlil qiladilar, kichik guruh a'zolaridan biri o'rtog'i yozgan inshoni (ovoz chiqarib) o'qiydi. Hamma eshitadi va o'zining ijobiy fikrini aytadi. Inshoni yozgan o'quvchi esa tinglab turadi.

Tadqiqodlar shuni ko'rsatadiki, bu usul o'quvchilarni boshqalarning ishidagi yaxshi jihatlarni ko'ra olishga o'rgatadi. Shuningdek, o'quvchi birovlarining yutuqlarini faqat ko'ribgina qolmay, ular haqida gapirishga ham o'rganadi. Bu kichik guruhda va butun sinfda iliq munosabatlarni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. O'rtoqlarining o'z ishi haqidagi ijobiy fikrlarni eshitgan o'quvchi, o'zining muvaffaqiyatli fikrlarini eslab qoladi, o'z qobiliyatiga ishonch paydo bo'ladi, ijobiy "Men kontsepsiya"ning shakllanishiga zamin yaratiladi. O'qituvchi ham guruhlar ishida ishtirok etib, o'zining fikrlarini bildirishi mumkin. Agar negativ holatlar yuzaga kelsa, ularni o'z vaqtida to'g'rilab boradi.

Insho tahlili to'g'ri ishtirokchilarning fikrlari tugaguncha davom ettiriladi.

Tahlildan so'ng muallif tahlil jarayonida nimalarni his qilganini o'rtoqlashishi mumkin. Agar imkon bo'lsa, boshqa o'quvchining ham inshosini tahlil qilish mumkin.



Biz bu faslda boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan interaktiv usullar to'g'risida fikr yuritamiz. Chunki o'qitishning interaktiv usuli pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, u pedagogik texnologiya talablari va printsiplari asosida tashkil etiladi va olib boriladi.

Ta'lim jarayonidagi asosiy innovatsiyalar o'qitishning interaktiv usullarini qo'llash bilan bog'liq. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan "interact" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "inter"-bu o'zaro, "act" – aloqa, ya'ni o'zaro aloqa, birgalikda faoliyat ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, interaktivlik bu birgalikda harakat qilish yoki nima bilandir doimiy suhbat, diolog holatida bo'lish qobiliyatidir. Interaktiv o'qitish - bu o'quvchilarning o'quv muhiti bilan o'zaro hamkorligi asosida o'qitishdir.

"Interaktiv"ning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Shuni alohida ta'kidlash joizki, interaktiv o'qitish – bu o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning maxsus shaklidir. U aniq va prognoz qilinadigan maqsadlarni ko'zda tutadi. Shunday maqsadlardan biri ta'lim uchun qulay sharoitni vujudga keltirish bo'lib hisoblanadi. Bunda o'quvchilar o'zlarining intellektual salohiyatini his etishi lozim. Shuning o'ziyoq ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Interaktiv o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilish faoliyatiga jalb etilgan bo'ladi. Ular o'zlari bilgan va o'ylagan narsalarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar. O'quvchilarning bilish va yangi o'quv materialini o'zlashtirish jarayonidagi hamkorligi deganda, har bir o'quvchi darsga o'z hissasini qo'shishi, o'zaro bilim, g'oyalar va faoliyat vositalarining almashinuvi tushuniladi. Bu tarzda o'zaro hayrixoxlik va qo'llab-quvvatlash muhitida o'qitish yangi bilimlarni egallashgina emas, balki o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Mashg'ulotlarda interaktiv usullardan foydalanish besh asosiy xususiyatni mujasamlashtiradi:

- ijobiy ma'noda bir-biriga tobelik;
- o'zaro hamkorlikdagi shaxsiy mas'uliyat;
- birgalikda ishlash malakalari;
- guruhlarda ishlash malakalari;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish malakalari.

Interaktiv usul so'zlovchining ustunlik qilishi yoki hammaning bir xil fikrga ega bo'lishi holatlarini inkor etadi. Dialogli ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlash, mavjud holat va axborotni tahlil qilish, murakkab muammolarni hal etish, alternativ fikrlarni taroziga solib ko'rish; o'ylab qaror qabul qilish; munozaralarda qatnashish; muloqot qila olish kabilarni o'rganadilar. Buning uchun darslarda yakka, juftlikda va guruxli ishlar tashkil etiladi, tadqiqodchilik loyihalari, rolly o'yinlar qo'llaniladi, hujjatlar va turli axborot manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlardan foydalaniladi.

O'quv jarayonining faol va guruxli metodlari avval ham an'anaviy ta'limda qo'llanilgan, lekin o'qitishning aynan interaktiv usuli ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

O'qitishning interaktiv usulidan foydalanishning muhimligi yana shundaki, u mehnatsevarlik, ishchanlik sifatlarini tarbiyalaydi, inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy malakalarni shakllantiradi. Bu sifatlarning shakllanganligi yosh mutaxassislarga o'z kasbiy faoliyatining boshlanishidagi jiddiy qiyinchiliklarni

bartaraf etish, yangi sharoit va yangi jamoaga tezgina moslashish uchun yordam beradi.

Interaktiv usullarning afzalliklari. Interaktiv usullar o'quvchilarni faollashtirish va ularning keng ta'limiy potentsialidan foydalanish imkonini beradi. O'quv jarayoniga o'zaro hamkorlik elementlarini olib kiradi. Guruh alohida a'zolarining emas, balki butun guruh intellektual kuchidan foydalanadi.

Interaktiv usulda o'qitish sinfda sheriklik muhitini yaratish uchun qulay imkoniyatlarni olib boradi.

Interaktiv usulga asoslangan texnologiyani qo'llaydigan o'qituvchi ijodiy hammualliflik holatida ish olib borishga majbur. U asosli o'zgarishlarga, nostandart va mas'uliyatli qaror qabul qilishga tayyor turmog'i lozim. Usul va vositalar qancha xilma-xil bo'lsa, o'qituvchining o'quvchilar bilan norasmiy muloqotga kirishish imkoniyati shuncha katta bo'ladi. Bunga faqat muvaffaqiyatli o'qitishga emas, balki o'qituvchining ham ilmiy o'sishiga, ham mahoratining oshishiga xizmat qiladi. Bunga yetarli darajada axborotga ega bo'lish, uzluksiz o'qib, o'rganib borish, tadqiqotlar olib borish, psixologik muhitni tushunish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini faol qo'llash orqaligina erishish mumkin.

Interaktiv usullardan foydalanish ta'limning tadqiqotchilik xususiyatini oshiradi. Bu esa kasbiy munosiblik va pedagogik mahoratni takomillashtirishga yordam beradi.

Interaktiv usullarni qo'llaganda o'qituvchilar quyidagilarga amal qilishlari talab etiladi:

- 1.O'quv sinfida ijobiy psixologik mikroiklimni vujudga keltirish.
- 2.Barcha o'quvchilarni faol o'quv-biluv faoliyatiga jalb etish.
- 3.O'quvchilarning dars mavzusiga qiziqishini muammoning muayyan holati va istiqboliga bog'lagan holda oshirish.
- 4.O'z nuqtai nazarini bildirishga undash orqali o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini o'stirish.
- 5.O'quv materialini turli variant, kontekst, aloqalarda tasavvur etish maqsadida aqliy faoliyatni rivojlantirishning turli strategiyalarini qo'llash.


6.O'quvchilarning turli g'oya va tajribalarini tushunish va qadrlash.

7.Turli resurslardan foydalangan holda o'quv faoliyatini davom ettirish maqsadida o'quvchilar uchun izlanuvchanlik muhitini yaratish.

8.Oldindan o'quvchilarni baho mezonlaridan xabardor qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqishda ularning fikridan ham foydalanish.

9.O'z ishi samaradorligini kuzatish, o'z faoliyati, bilimi va munosabatlariga baho berish.

Interaktiv usullarda o'qitish muhiti maxsus tashkil etiladi. Bu muhit o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga qaratiladi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, metodi va tashkiliy shakllari harakatchan va muayyan o'quv muassasasi doirasiga o'zgartirish uchun qulay bo'ladi. Interaktiv usulda o'qitish muhiti modelini quyidagicha ifodalash mumkin.



3-chizma. O'qitish muhiti modeli.

2-bob bo'yicha xulosalar:

Interaktiv o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilish faoliyatiga jalb etilgan bo'ladi. Ular o'zlari bilgan va o'ylagan narsalarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

Mashg'ulotlarda interaktiv usullardan foydalanish besh asosiy xususiyatni mujasamlashtiradi:

- ijobiy ma'noda bir-biriga tobelik;
- o'zaro hamkorlikdagi shaxsiy mas'uliyat;
- birgalikda ishlash malakalari;
- guruhlarda ishlash malakalari;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish malakalari.

Interaktiv usullar o'quvchilarni faollashtirish va ularning keng ta'limiy potentsialidan foydalanish imkonini beradi. O'quv jarayoniga o'zaro hamkorlik elementlarini olib kiradi. Guruh alohida a'zolarining emas, balki butun guruh intellektual kuchidan foydalanadi.

Interaktiv usullarda o'qitish muhiti maxsus tashkil etiladi. Bu muhit o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga qaratiladi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, metodi va tashkiliy shakllari harakatchan va muayyan o'quv muassasasi doirasiga o'zgartirish uchun qulay bo'ladi.

XULOSA

Ma`lumki, boshlang'ich ta`lim keyingi ta`lim bosqichlari uchun poydevor quradigan, o`quvchilarda mustaqil o`quv-biluv faoliyati ko`nikmalarini shakllantiradigan, ularda ongli mushohada yuritish, ma`lum maqsadli hatti-harakatlarni amalga oshirish, ixtiyoriy diqqat, idrok va tafakkur ko`nikmalari shakllanadigan, keyingi bosqichda o`qitiladigan barcha fanlarga oid asosiy tushunchalar shakllantiriladigan muhim bosqich bo`lib hisoblanadi.

Yuqorida ko`rsatilgan zaruriy ko`nikmalarning samarali shakllantirilishi uchun boshlang'ich ta`limda yangi pedagogik texnologiyalardan o`rinli foydalanish asosiy shartlardan biri bo`lib hisoblanadi.

“Boshlang'ich ta`limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixodidaktik asoslari” deb nomlangan ushbu bitiruv-malakaviy ishni bajarish jarayonida to`plangan ma`lumotlar va bajarilgan tadbirlar natijasida ish bo`yicha quyidagi **xulosalarni** shakllantirish imkoni vujudga keldi:

1. Pedagogik texnologiya deganda bilim, ko`nikma, malaka va munosabatlarni qo`yilgan maqsadga muvofiq konstruksiyalash, shakllantirish va nazorat qilishga qaratilgan operatsiya (amal)lar majmui tushuniladi.

2. Maktab pedagogik texnologiyalarining psixologik aspekti sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: maqsad, operatsiyalar, kommunikator (o`qituvchi)lar, retsipient(o`quvchi)lar, vositalar, printsiplar.

Demak, texnologiya yuqorida ko`rsatilgan (M,O,K,R,V,P) komponentlarning birgalikdagi funktsiyasi.

3. Pedagogik texnologiyada o`qituvchi faoliyatini quyidagi komponentlarga ajratish mumkin: gnostik; loyihalovchilik; konstruksiyalovchilik; tashkilotchilik va kommunikativlik.

4. Texnologiyalar yana quyidagicha tasnif etilish mumkin: ta`lim, tarbiya, rivojlantirish va diagnostika texnologiyalari.

5. Pedagogik texnologiyalarning psixik metarialiga quyidagilarni kiritish mumkin: bilimlar, ko`nikmalar, malakalar.

6. Rivojlanishning psixik materialiga esa quyidagilar kiradi: **Sezish jarayoni**. Obrazlarning turlariga qarab sezishning 13 turini ajratish mumkin: 1) ko'rish; 2) eshitish; 3) hid bilish; 4) ta'm bilish; 5)teri orqali sezish; 6) harorat; 7) og'riq; 8) kinestik; 9)muvozanat; 10) tebranishli; 11) organik 12) jinsiy; 13) hissiy. **Idrok**. Idrok sezishdan shunisi bilan farq qiladiki, bunda narsa va hodisalarning yaxlit obrazi shakllanadi. **Tasavvur etish**. Bu ikkilamchi obrazlarni tasavvur etish jarayonidir. **Fikrlash** - bu yangi obrazlar yaratishning psixik jarayonidir. Fikrlash jarayonida obrazlar ketma-ketligi idrok etilgan narsaning izchilligiga ko'ra o'zgaradi. **Xotira**. Xotiraning ham sezish singari 13 xil turi mavjud. Xotiraning 4 vazifasi ajratiladi: eslab qolish, saqlash, qayta xotiralanish, esdan chiqarish. **Tafakkur**. Analitik-sintetik ishlov berish uchun taqdim etilgan materialning xususiyatiga qarab tafakkurning 4 xil turlari ajratiladi: predmetli, obrazli, belgili va simvolik (ramziy).

7. Pedagogik prinsip – bu pedagogik texnologiyalarni konstruksiyalash va qo'llash jarayonida amal qilinadigan dastlabki, asosiy holatdir.

8. Ishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashda amal qilinadigan prinsiplar quyidagicha tasnif etildi: 1)ta'limning tarbiyalovchi prinsipi; 2)rivojlantiruvchi ta'lim prinsipi; 3)ta'lim-tarbiya va rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishish prinsipi; 4)yuz foizli teskari aloqa prinsipi; 5)muntazam takrorlash prinsipi; 6)samarali psixologik bosim prinsipi (o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham); 7)o'quvchilarning o'quv jarayoniga maksimal ishtiroki prinsipi; 8)rivojlanishning yaqin zonasiga yo'nalganlik prinsipi; 9)o'qituvchi va o'quvchilarni yagona maqsad yo'lida birlashtirish prinsipi.

9. Interaktiv o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilish faoliyatiga jalb etilgan bo'ladi. Ular o'zlari bilgan va o'ylagan narsalarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

10. Mashg'ulotlarda interaktiv usullardan foydalanish besh asosiy xususiyatni mujasamlashtiradi:

- ijobiy ma'noda bir-biriga tobelik;
- o'zaro hamkorlikdagi shaxsiy mas'uliyat;
- birgalikda ishlash malakalari;

- guruhlarda ishlash malakalari;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish malakalari.

11. Interaktiv usullar o'quvchilarni faollashtirish va ularning keng ta'limiy potentsialidan foydalanish imkonini beradi. O'quv jarayoniga o'zaro hamkorlik elementlarini olib kiradi. Guruh alohida a'zolarining emas, balki butun guruh intellektual kuchidan foydalanadi.

12. Interaktiv usullarda o'qitish muhiti maxsus tashkil etiladi. Bu muhit o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga qaratiladi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, metodi va tashkiliy shakllari harakatchan va muayyan o'quv muassasasi doirasiga o'zgartirish uchun qulay bo'ladi.

Shuningdek, ishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan interaktiv metodlardan namuna sifatida kiritildiki, ulardan o'qituvchilar darslarda bimalol foydalanishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 74 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 54 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 103 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998. –686 b.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999. –413 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. TAT, 2-jild. –T.: O'zbekiston, 1996. – 351 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. - 174 b.
8. I.A.Karimov. «Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik». T.: O'zb, 1994. –B. 8-9
9. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997. –B. 137-140
10. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. – B. 20-29
11. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. –B. 32-61
12. Ziyomhammad B, Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent, Abu Ali ibn Sino, 2001.
13. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. Xalq ta'limi, 1999, № 4, -B. 4-11
14. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. –T.: O'qituvchi, 2000.–224 b.
15. Maxmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalash printsiplari. Toshkent, Abdulla Qodiriy nashriyot. 2002. –58 b.

- 16.Mahmudov M.H. Ta`limni o`quv-biluv faoliyati loyihasilash printsiplari. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 58 b.
- 17.Mahmudov M.H. Ta`limni o`quv-biluv faoliyati loyihasilash. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi., - 2002. –79-b.
- 18.Mahmudov M.H. O`quv materialini o`quv-biluv faoliyati loyihasilash tizimi. Pedagogik mahorat jurnali. – 2002. 3-son, –B. 3-11
- 19.Mahmudov M.H. Ta`lim natijasini loyihalash. Ta`lim muammolari jurnali. 2002, 1-2-son, –B. 81-84
20. Mahmudov M.H. Ta`lim natijalarini o`quv-biluv faoliyati loyihasida qayd etish shakllari. Xalq ta`limi jurnali. 2003, –B,78-82
21. Najmiddinova G.N. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`quv-biluv faoliyati. BuxDU, "Ziyo-rizograf", 2005, –84 b.
22. Pedagogika. Bolshaya sovremennaya entsiklopediya. Sost. Ye.S.Rapatsevich. – Mn.: «Sovremen. slovo», 2005. – 720 s.
23. Podlasiy I.P. Pedagogika.Noviy kurs: Uchebnik dlya stud. ped. vuzov: V 2kn. – M.: Guman.izd.tsentr VLADOS, 1999. –KN. 2: Protsess vospitaniya. -576 s.: il. – S 256.
24. Roziqov O., Adizov B., Mahmudov M., Ta`lim texnologiyasi. Toshkent, O`qituvchi, 1999 yil, –71 b.
- 25.Roziqov O., Og`ayev O., Mahmudov M., Adizov B. Ta`lim texnologiyasi -T.: "O`qituvchi", 1999, –71 b.
- 26.ROZIQOV O., Og`ayev S., Mahmudova M., Adizov B. Didaktika. - T.:"O`qituvchi", 1997, –256 b.
- 27.Saidaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T., 1999, –55 b.
28. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar Toshkent, "Moliya", 2003.
29. Ta`lima axborot texnologiyalari. Toshkent, 2000 yil, –131 b.
30. Ta`limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yesimlar. Ilmiy Amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, O`z PFITI, 1999, 4-5 may.

31. Talizina N.F. Texnologiya obucheniya i yeyo mesto v pedagogicheskoy teorii. Sovremennaya vishaya shkola. Varshava, 1977. № 1 –s. 91-96.
32. Tajiyev M., Alimov A.Y., Quchqarov D.U. Pedagogik texnologiya – ta`lim jarayoniga tatbig'i. – T.: "Tafakkur", 2010, –146 b.
33. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: 1997. –84 b.
34. Hayitov A.G'. Kompyuterlashtirilgan ta`lim va o'quvchilar bilimining tashxisi. //«Pedagogik ta`lim», 2000, № 3.

Elektron ta`lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.pedagog.uz

ILOVALAR

MUNDARIJA:

REJA.....	3
KIRISH.....	4
 1 BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	 8
1.1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.....	8
1.2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash prinsiplarining psixologik tahlili.....	21
 11 BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AMALIY SHART- SHAROITLARI.....	 30
2.1. Interaktiv usullarda o'qitishning maqsad va vazifalari.....	30
2.2. Boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan interaktiv o'qitish metodlari.....	47
 XULOSA.....	 69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	72
ILOVALAR.....	75